2020-yil 25-yanvardan chiqa boshlagan

Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari

YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 205 (1804), 2026-yil 3-oktabr, shanba

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz.uz_news

O‘ZBEKISTON – DANIYA: HAMKORLIKNI YANADA RIVOJLANTIRISH MASALALARI KO‘RIB CHIQILDI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2-oktabr kuni mamlakatimizga rasmiy tashrif bilan kelgan Daniya Qirolligi tashqi ishlar vaziri Lars Lyokke Rasmussenni qabul qildi.



O‘zbekiston — Daniya munosabatlarini siyosiy, savdo-iqtisodiy va madaniy-gumanitar sohalarda kengaytirishning amaliy jihatlari ko‘rib chiqildi.

Ikki tomonlama hamkorlik sezilarli darajada faollashgani mamnuniyat bilan qayd etildi. O‘tgan yili Daniyaga O‘zbekistonning qarorgohi Stokgolm shahrida bo‘lgan ilk elchisi tayinlandi. Joriy yilda Daniya Markaziy Osiyo bo‘yicha maxsus vakilini tayinladi.

So‘nggi yillarda o‘zaro tovar ayirboshlash hajmi qariyb besh barobar oshdi. Daniyaning yetakchi kompaniyalari ishtirokida O‘zbekistonda tog‘-kon, kimyo va oziq-ovqat sanoati, qishloq xo‘jaligi, suv ta’minoti hamda boshqa sohalarda qo‘shma loyihalar amalga oshirilmoqda.

O‘zaro savdo hajmini yanada oshirish, Daniya investitsiyalari, ilg‘or texnologiyalari va nou-xaularini energetika, farmatsevtika, transport va logistika, agrosanoat majmui hamda boshqa istiqbolli yo‘nalishlarga jalb etish muhimligi ta’kidlandi.

Ta’lim, madaniyat va turizm sohalarida aloqalarni rivojlantirish uchun salmoqli salohiyat mavjudligi qayd etildi.

Xalqaro va mintaqaviy ahamiyatga molik dolzarb masalalar yuzasidan ham fikr almashildi.

Uchrashuv yakunida hamkorlikni tizimli ravishda kengaytirish uchun institutsional va shartnomaviy-huquqiy asoslarni yanada mustahkamlash yuzasidan kelishuvga erishildi.

O‘zA

Prezident qarorlari — hayotda va nazoratda

SAMARALI IJRO INTIZOMI — TARAQQIYOTNING ENG ISHONCHLI VA MUSTAHKAM POYDEVORI

Bugungi kunda jahon miqyosida kechayotgan shiddatli globallashuv, ijtimoiy-iqtisodiy transformatsiyalar va texnologik inqiloblar har bir davlatdan o‘z boshqaruv tizimini tubdan isloh qilishni, qaror va qonunlar qabul qilish jarayonigagina emas, balki ularning amaldagi ijrosiga alohida e’tibor qaratishni talab etmoqda.

Zero, har qanday demokratik va huquqiy jamiyatning mustahkam poydevori, davlat hokimiyati idoralari faoliyatining samaradorligi va xalqning davlatga ishonchi bevosita ijro intizomining qay darajada yo‘lga qo‘yilgani bilan belgilanadi. Chunki eng mukammal qonunlar, eng ilg‘or strategiyalar va xalqchil dasturlar ham, agar ularning ijrosi o‘z vaqtida, sifatli va to‘liq ta’minlanmasa, shunchaki qog‘ozda qolib ketuvchi deklarativ hujjat bo‘lib qoladi, xolos.

O‘zbekiston o‘z taraqqiyotining yangi bosqichiga kirishgan, Uchinchi Renessans poydevorini yaratishdek ulug‘vor maqsadlarni o‘z oldiga qo‘ygan bir davrda ijro intizomini mustahkamlash davlat siyosatining eng ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Zero, davlatimiz rahbari ta’kidlaganidek, islohotlarning natijadorligi, fuqarolarning hayot darajasi va farovonligi joylardagi ijro apparatining mas’uliyati, fidoyiligi va intizomiga bog‘liqdir.

Ijro intizomi nafaqat huquqiy majburiyat yoki ma’muriy tartib-qoidalar yig‘indisi, balki davlat organlari, mansabdor shaxslar va har bir xizmatchining qabul qilingan qonun hujjatlari, farmon va qarorlar, topshiriq va dasturlarni belgilangan muddatlarda, sifatli va maqsadli amalga oshirish mas’uliyatidir. Kengroq ma’noda aytsak, ijro intizomi davlat mexanizmi uzluksiz, uyg‘un va samarali ishlashini ta’minlovchi asosiy harakatlantiruvchi kuchdir. Agar davlatni ulkan va murakkab bir soat mexanizmiga o‘xshatsak, ijro intizomi ushbu mexanizmning har bir tishli g‘ildiragini bir-biriga bog‘lab, soatning to‘g‘ri va aniq ishlashini ta’minlovchi quvvat hisoblanadi.

Ijro intizomining ijtimoiy-siyosiy ahamiyati shundaki, u davlat bilan xalq o‘rtasidagi o‘zaro ishonch ko‘prigini mustahkamlaydi. Har qanday islohot yoki qonun hujjati pirovardida oddiy insonlarning turmush sharoitini yaxshilashga yo‘naltirilgan bo‘ladi.

Davomi 2-betda

“TEZROQ HARAKAT QILING, O‘ZBEKISTON BOZORIGA KIRISHGA SHOSHILING”

YOXUD SOBIQ ELCHINING FIKRI O‘ZGARISHIGA NIMA SABAB BO‘LDI?



Boy tarix, madaniyat, iqtisodiy salohiyat va ulkan imkoniyatlar yurti

Dunyo mamlakatlari o‘rtasida hamkorlik, ochiq muloqot va o‘zaro tajriba almashinuvi tobora muhim ahamiyat kasb etib borayotgan bugungi globallashuv va jadal taraqqiyot davrida yangi O‘zbekistonning jahon hamjamiyatiga ochilishi, xorijiy davlatlar bilan do‘stona va manfaatli munosabatlarning kengayishi mamlakatimizning xalqaro maydondagi o‘rnini yanada mustahkamlamoqda.

Mustaqilligimizning 35 yilligi arafasida Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazining bir guruh xodimlari Yaponiyada bo‘lib qaytdi. Bir necha kun mobaynida dunyo O‘zbekistonning boy tarixi, betakror madaniyati, iqtisodiy salohiyati va ulkan imkoniyatlariga tobora ko‘p qiziqish bildirayotganiga yana bir karra amin bo‘ldik. Safar davomida Tokio, Nagoya va Xirosima shaharlarida o‘nlab uchrashuv, taqdimot va davra suhbatlari o‘tkazildi. Xususan, Yaponiya Milliy parlament kutubxonasi, qator nufuzli universitetlarga tashrif, rasmiy qabullar, vatandoshlarimiz bilan samimiy muloqotlar dasturdan o‘rin olgan edi.

Davomi 5-betda

MILLAT KELAJAGIGA E’TIBOR



NOTINCH DUNYODAGI TINCH, BARQAROR MAMLAKAT

Sentabr sarhisobi

Sentabr odatdagidek O‘zbekiston siyosiy hayotida jo‘shqin jarayonlarga boy bo‘ldi. Sokin kuzning ilk oyini mamlakat siyosiy-ijtimoiy hayotida bir nuqtada tutashadigan turli jabhalarni bir vaqtning o‘zida harakatga keltirgan pallaga qiyoslash mumkin:
Toshkentda — yig‘ilishlar, qarorlar va yangi vazifalar.
Hududlarda — yangi loyihalar, korxonalar, ish o‘rinlari kabi ulkan marralar.
Xorijda — strategik hamkorlik va investitsiyalar bo‘yicha muzokaralar. Tinchlik va barqarorlik hukmron jamiyatda esa ushbu har bir yangilik hamda o‘zgarishlarning odamlar hayotida aks ettirish maqsadi bilan yashayotgan fidoyi insonlar faoliyati...



Tashqi siyosatda faol diplomatik kun tartibi

O‘zbekiston dunyoga, dunyo O‘zbekistonga ochilishda davom etmoqda. Bu gap zamirida nafaqat mamlakatimizning tashqi dunyo bilan aloqalari kengayishi, balki xalqlar o‘rtasidagi o‘zaro anglashuv, ishonch va hamkorlikning yangi bosqichga ko‘tarilishi, yurtimizda tinchlik mustahkamlanib, turmush farovonligi oshib borayotgani kabi rad etib bo‘lmas haqiqatlar mujassam. Bugun O‘zbekiston va uning mardonavor xalqi tarixiy qadriyatlarini asrab-avaylagan holda zamonaviy taraqqiyot sari dadil qadam tashlamoqda va dunyoga yangi qiyofasini namoyon etmoqda. Davlatimiz rahbarining yil o‘n ikki oy tig‘iz kun tartibi bilan o‘tayotgan faoliyati sentabr oyida ham keng ko‘lami va qamrovi bilan yuqoridagi fikrimizni baralla ayta olishga izn beradi.

Oyning ilk kunida Prezidentimiz Shanxay hamkorlik tashkilotiga a’zo davlatlar rahbarlari kengashining yubiley yig‘ilishida ishtirok etdi. Bishkek shahri mezbonligida o‘tgan tadbir kun tartibiga muvofiq, tashkilotning 25 yillik faoliyati davomida erishilgan yutuqlar, barqarorlikni mustahkamlash, hamkorlikni kengaytirish va birgalikdagi taraqqiyotni davom ettirish borasidagi istiqbolli vazifalar muhokama qilindi. Eng dolzarb xalqaro va mintaqaviy masalalar yuzasidan ochiq fikr almashildi.

Prezidentimiz tashkilot chorak asr davomida o‘zining zarurligi va samaradorligini namoyon etgani, “Shanxay ruhi” tamoyillariga amal qilgan holda teng huquqli muloqotni ta’minlagani, mintaqaviy barqarorlik va mamlakatlarimizning barqaror rivojlanishiga ko‘maklashganini qayd etdi. O‘z nutqida tashkilot oldida turgan eng dolzarb vazifalarga to‘xtaldi.

Iqtibos: “Ishonchim komilki, SHHT mamlakatlarining ulkan insoniy, tabiiy, ishlab chiqarish va intellektual resurslari, eng avvalo, xalqlarimiz farovonligini yuksaltirishga xizmat qilishi lozim. Shu bois, “SHHT — 2040: umumiy taraqqiyot makoni” konseptual qarashini ishlab chiqishga kirishishni taklif etaman.

Uning asosiy maqsadi investitsiyalar, texnologiyalar va bilimlar erkin almashiniladigan, yirik infratuzilma va sanoat loyihalari amalga oshiriladigan, mintaqalar, biznes va odamlar o‘rtasidagi to‘g‘ridan to‘g‘ri aloqalar kengayib boradigan o‘zaro bog‘liq va barqaror makonni shakllantirishdan iborat bo‘lishi lozim”.

Shuningdek, davlatimiz rahbari “SHHT plyus” formatidagi uchrashuvda nutq so‘zladi. Dunyoda ro‘y berayotgan o‘zgarishlar sharoitida BMT va mintaqaviy tuzilmalar roliga to‘xtalib, qator takliflarni ilgari surdi, O‘zbekiston Yevroosiyo makonida ochiq va o‘zaro manfaatli hamkorlikni rivojlantirish tarafdori ekanini urg‘uladi.

Iqtibos: “Biz uchun o‘zaro bog‘liqlik strategik mustaqillik va barqarorlik masalasidir. Biz shunday ko‘p qutblilik tarafdorimizki, u yangi ajratuvchi chiziqlarni yaratmaydi, balki imkoniyatlar makonini kengaytiradi, mintaqaviy loyiha va tashabbuslar o‘zaro raqobatlashmaydi, balki bir-birini samarali to‘ldiradi”.

Prezidentimiz sammit doirasida Xitoy Xalq Respublikasi Raisi, Rossiya Prezidenti va Pokiston Bosh vaziri bilan muzokaralar, shuningdek, BMT Bosh kotibi va AQSH Prezidentining Janubiy va Markaziy Osiyo bo‘yicha maxsus vakili bilan uchrashuvlar o‘tkazdi.

O‘zbekiston tashqi siyosatidagi faollik 7-8-sentabr kunlari Yevropa mintaqasiga ko‘chdi. Mamlakatimiz yetakchisi Serbiya Respublikasi Prezidenti taklifiga binoan rasmiy tashrif bilan ushbu mamlakatda bo‘ldi.

Davomi 2-betda

2026-yil 3-oktabr, 205-son

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz.uz_news

Prezident qarorlari — hayotda va nazoratda

SAMARALI IJRO INTIZOMI — TARAQQIYOTNING ENG ISHONCHLI VA MUSTAHKAM POYDEVORI

Boshlanishi 1-betda

Agar joylarda hujjatlar ijrosi paysalga solinsa, rasmiyatchilik yoki hisobotbozlikka yo‘l qo‘yilsa, fuqarolarda davlat siyosatiga va adolatga ishonch so‘nadi. Aksincha, qabul qilingan qarorlarning hayotda o‘z aksini topishi, muammolar o‘z vaqtida hal etilishi jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni ta’minlaydi, fuqarolarning Vatan taqdiri, jamiyatda kechayotgan yangilanish jarayonlariga daxldorlik tuyg‘usini va faolligini oshiradi. Shuning uchun ham ijro intizomi shunchaki ma’muriy tushuncha emas, balki mamlakat barqarorligi va taraqqiyotini ta’minlovchi muhim ijtimoiy-siyosiy omildir.

Zamonaviy menejment va davlat boshqaruvi nazariyasida samaradorlik tushunchasi resurslar, ya’ni vaqt, mablag‘, inson kapitalidan oqilona foydalangan holda eng yuqori natijaga erishishni anglatadi. Bu jarayonda ijro intizomi boshqaruv sifati va samaradorligini belgilovchi eng asosiy mezon. Yuqori ijro intizomi mavjud tizimda bir necha muhim afzalliklar bo‘ladi:

— vaqt resursidan unumli foydalanish. Belgilangan topshiriqlarning o‘z vaqtida bajarilishi ish sur’atini oshiradi, ortiqcha byurokratik jarayonlar va takroriy majlislarga chek qo‘yadi;

— moddiy va moliyaviy resurslar tejamkorligi. Dastur va loyihalarning kechiktirilishi ko‘pincha inflyatsiya yoki qo‘shimcha xarajatlar sababli loyiha qiymati oshishiga olib keladi. Ijro intizomi esa bunday holatlarning oldini olishga zamin yaratadi;

— strategik rejalashtirishning aniqligi. Quyi bo‘g‘inlarda topshiriqlar aniq bajarilganda, yuqori boshqaruv organlari kelgusi strategik qadamlarni to‘g‘ri va real ma’lumotlarga tayanib rejalashtira oladi.

Davlat boshqaruvida rahbar kadrlarning shaxsiy javobgarligi va namunasi ijro intizomini shakllantirishda markaziy o‘rin tutadi. Rahbar o‘z xatti-harakatlari, ish uslubi va mas’uliyati bilan jamoaga namuna bo‘lishi lozim. Zero, boshqaruvda intizom yuqoridan pastga qarab shakllanadi. Rahbar o‘ziga va qo‘l ostida ishlovchilarga nisbatan talabchan bo‘lgan, topshiriqlar ijrosini tizimli nazorat qila olgan joydagina ko‘zlangan natijalarga erishilishi shubhasizdir.

O‘zbekistonda, ayniqsa, keyingi o‘n yillikda ijro intizomini kuchaytirishning mustahkam huquqiy va tashkiliy bazasi yaratildi. Davlat boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati idoralarining bu boradagi faoliyati qator qonunlar, Prezidentimiz farmon va qarorlari hamda hukumat hujjatlari bilan tartibga solib kelinmoqda.

Xususan, O‘zbekiston Prezidentining 2021-yil 10-fevraldagi “Qonunchilik hujjatlari ijrosini samarali tashkil etishda davlat boshqaruvi organlari va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari rahbarlarining shaxsiy javobgarligini kuchaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmoni, 2021-yil 31-maydagi “Ijro.gov.uz” ijro intizomi idoralararo yagona elektron tizimi samarali faoliyat ko‘rsatishini ta’minlashga qaratilgan qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori va boshqa tegishli hujjatlar tizimda yangi davrni boshlab berdi.

Ushbu hujjatlar orqali ijro intizomini nazorat qilishning mutlaqo yangi mexanizmi joriy etildi. Unga ko‘ra, har bir topshiriq va qonun hujjati



Ulug‘bek MUSTAFOYEV,
Jizzax viloyati hokimi

bo‘yicha mas’ul ijrochilar, bajarish muddatlari va kutilayotgan aniq natijalar (KPI) belgilab berildi.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari jadal rivojlanayotgan bugungi davrda ijro intizomini an’anaviy, ya’ni qog‘oz ko‘rinishida nazorat qilish o‘z ahamiyatini yo‘qotdi. Shu sababli davlat boshqaruvida raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali inson omilini kamaytirish, shaffoflik va tezkorlikni ta’minlashga alohida e’tibor qaratildi. Davlat organlari va tashkilotlarida ijro intizomini nazorat qilishning yagona elektron tizimi — “Ijro.gov.uz” tizimi yo‘lga qo‘yildi.

Mazkur axborot tizimi qonun hujjatlari va topshiriqlarning ijro jarayonini onlayn rejimda kuzatish, muddatlarni avtomatik ravishda nazorat qilish va hisobotlarni shakllantirish kabi qulay imkonlar yaratdi. Tizimning amaliyotga joriy etilishi tufayli quyidagi ijobiy natijalarga erishildi:

— shaffoflik ta’minlandi. Hujjat ustida kim, qachon va qanday ishlayotganini yuqori turuvchi organlar real vaqt rejimida ko‘rib turadi, bu esa yashirin paysalga solish holatlariga barham beradi;

— muddatlar nazorati qat’iylashdi. Topshiriq muddati yaqinlashganda tizim ijrochini avtomatik ravishda ogohlantiradi va muddat

buzilgan taqdirda tizimda qizil chiroq yonib, bu haqda nazorat qiluvchi organlarga xabar boradi;

— qog‘ozbozlik kamaydi. Hujjat aylanishi elektron shaklga o‘tkazilishi hisobiga vaqt va moddiy resurslar sezilarli darajada tejala boshladi.

Raqamlashtirish jarayonlari faqatgina ma’muriy nazoratni osonlashtirib qolmay, davlat xizmatchilarining ish samaradorligini xolis baholash uchun ham mustahkam zamin yaratdi. Endilikda xodim yoki rahbarning faoliyatiga subyektiv qarashlar asosida emas, balki elektron tizimdagi real ijro ko‘rsatkichlariga qarab baho berilmoqda.

Har bir rahbar va ijrochi o‘z faoliyatida “Vaqt — oltin, xalq manfaatlari — hamma narsadan ustun” tamoyilini shior qilib olgandagina ko‘zlangan maqsadlarga erishish mumkin. Shundan kelib chiqqan holda, bugun ijro intizomi shunchaki ma’muriy talab emas, balki jamiyatda yuqori mas’uliyat madaniyatini shakllantiruvchi ma’naviy mezonga aylanib



Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari jadal rivojlanayotgan bugungi davrda ijro intizomini an’anaviy, ya’ni qog‘oz ko‘rinishida nazorat qilish o‘z ahamiyatini yo‘qotdi. Shu sababli davlat boshqaruvida raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali inson omilini kamaytirish, shaffoflik va tezkorlikni ta’minlashga alohida e’tibor qaratildi. Davlat organlari va tashkilotlarida ijro intizomini nazorat qilishning yagona elektron tizimi — “Ijro.gov.uz” tizimi yo‘lga qo‘yildi.

qilinsa, buning ortidan, albatta, ijobiy natija — insonlarning roziligi yuzaga chiqadi.

Ijro intizomi kuchayishi bugun faqatgina raqamlar yoki hisobotlardagi quruq statistik ko‘rsatkich emas. Bu olis qishloqdagi xonadonga kirib borayotgan ichimlik suv, yangidan qad ko‘targan maktab binosi, yoshlarning bandligini ta’minlayotgan yangi korxona va eng asosiysi, fuqarolarning ertangi kunga ishonchi mustahkamlanishidir.

Jizzax viloyatida ham ijro intizomining samarali yo‘lga qo‘yilishi natijasida ijtimoiy soha yo‘nalishida 163 ta, jumladan, 73 ta maktab va 22 ta bog‘cha, 27 ta tibbiyot, 4 ta oliy ta’lim, 35 ta sport va 2 ta madaniyat obyektida qurilish-ta’mirlash ishlari bajarilib, 3,1 mingdan ortiq o‘quv o‘rni yangidan yaratildi va 4 mingga yaqin mavjud o‘quv o‘rni ta’mirdan chiqarildi.





Hududlarda uzoq yillardan buyon yechimini kutib kelgan yo‘l bilan bog‘liq muammolarning ijobiy hal etilishi shunchaki infratuzilma loyihasi emas, balki joylardagi rahbarlarning qabul qilingan qarorlarga nisbatan mas’uliyati va ijro intizomiga qat’iy amal qilayotganining amaliy natijasi hisoblanadi.

Joriy yil davomida viloyatda yo‘l infratuzilmasini yaxshilash uchun umumfoydalanishdagi 86 kilometr va ichki 308 kilometr yo‘l asfaltlanib, 118 kilometr tuproq yo‘l shag‘allashtirildi. Avtomobil yo‘llaridagi 5 ta ko‘prik ta’mirlandi.

Yo‘l-transport hodisalarining oldini olish, piyodalar va aholi xavfsizligini ta’minlash maqsadida shahar hududida yana 3 ta yangi yer osti piyodalar yo‘lagi qurilib, foydalanishga topshirildi.

Aydar-Arnasoy ko‘llar tizimiga olib boruvchi 93 kilometr avtomobil yo‘llari ta’mirlanib, mahalliy va xorijiy sayyohlarga qulayliklar yaratildi.

Aholini toza ichimlik suv bilan ta’minlash va zamonaviy oqova suv tizimlarini barpo etish borasidagi ishlarni aslo kechiktirib, paysalga solib bo‘lmaydi. Zero, u yurtdoshlarimiz farovonligini ta’minlashdagi asosiy zaruratlardan biri. Ayni yo‘nalishdagi topshiriqlarning ijrosi shunchaki infratuzilma loyihasi emas, balki inson qadrini ulug‘lashga qaratilgan davlat siyosatining muqarrar ijro mexanizmidir.

O‘tgan 6 oy davomida ichimlik va oqova suv ta’minotini yaxshilash maqsadida 273 kilometr ichimlik va 175 kilometr oqova suv tarmog‘i tortildi hamda 6 ta ichimlik suv inshooti foydalanishga topshirildi.

Investitsiya loyihalarining o‘z vaqtida ishga tushirilishi va eksport geografiyasi kengaytirilishi shunchaki iqtisodiy ko‘rsatkichlar emas, balki har bir boshqaruv bo‘g‘inidagi ijro intizomining qay darajada qat’iy va samarali ekanini ko‘rsatuvchi asosiy mezondir. Hududlarda yangi eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish va to‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy sarmoyalarni o‘zlashtirish borasidagi topshiriqlar ijrosi iqtisodiy taraqqiyot poydevorining mustahkamligini belgilaydi.

Investitsiya va eksport bo‘yicha ham katta rejalarni belgilab olganmiz. So‘nggi 7 yilda jami 4,8 milliard dollar investitsiya jalb etilgan bo‘lsa, yaratib berilgan sharoitlar natijasida joriy yilning o‘zida 2,7 milliard dollar o‘zlashtirilishini maqsad qilganmiz.

Viloyatimizda aholi bandligini ta’minlash va daromadlarini oshirish borasida ham salmoqli natijalarga erishildi. O‘tgan davr mobaynida 234,1 ming aholi daromadli mehnat bilan ta’minlandi. Shundan 25,4 ming nafari doimiy ishga joylashtirildi, 34,4 ming nafarining mehnat faoliyati legallashtirildi, 175 ming nafarining daromadi oshirildi. Eng muhimi, bu raqamlar ortida yangi ish o‘rinlari, aholi daromadlari ortishi, tadbirkorlik uchun yangi imkoniyatlar va yurtimiz taraqqiyotiga munosib hissa qo‘shishdek ezgu maqsadlar mujassam.

Aholini sifatli oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta’minlash eng ustuvor vazifalarimizdan biridir. Bunda qishloq xo‘jaligini rivojlantirish, agrar sektorga innovatsiya va raqamlashtirishni keng joriy etish muhim rol o‘ynaydi.

Shu maqsadda bu yil g‘alla hosili o‘rim-yig‘imida qatnashgan jami 367 ta don o‘rish kombayniga “JPS” texnologiyalari va kuzatuv kameralari o‘rnatilib, monitoring markazi orqali kuzatish tizimi ishga tushirildi. Natijada kunlik ish unumdorligi oshib, 15 kunda g‘allani o‘rib olishga erishildi. Boshqacha aytganda, 84 ming tonna yoki 269 milliard so‘mlik hosil qisqa fursatda, asosiysi, yo‘qotilishga yo‘l qo‘yilmasdan yig‘ib olindi.

Pillachilik yo‘nalishida “Jizzax tajribasi” asosida 10 ta tumandagi ko‘p qavatli uylar atrofida zamonaviy, markazlashgan 70 ta pillaxona barpo etildi hamda 40 mingdan ortiq xotin-qizning bandligi ta’minlanib, daromad olishiga ko‘maklashildi.

Sayyohlar uchun zarur infratuzilma yaratish va xizmat ko‘rsatish sifatini oshirish bo‘yicha belgilangan vazifalarning joylardagi ijrosi tarmoqning iqtisodiy o‘sish drayveriga aylanishini ta’minlaydi.

Davlatimiz rahbarining turizm sohasini rivojlantirish yuzasidan qabul qilayotgan qarorlari va yaratib berayotgan imkoniyatlari natijasida ushbu soha viloyatimiz iqtisodiyotining ham drayveri, ham tashrif qog‘oziga aylandi.

Masalan, Aydar-Arnasoy ko‘llari bo‘yida yillik 400-500 ming mahalliy va xorijiy sayyohni qabul qilish salohiyatiga ega bo‘lgan, umumiy qiymati 338 milliard so‘mlik yirik turizm majmuasi faoliyati yo‘lga qo‘yildi.

Joriy yilning 27-28-iyun kunlari mazkur turizm majmuasida yuqori saviyada o‘tkazilgan “Jizzakh Open Air” xalqaro turizm festivaliga 45 ming mahalliy va xorijiy sayyoh tashrifi kuzatildi.

Yana bir muhim voqea — ushbu ko‘l bo‘yiga tashrif buyuruvchi aholi va sayyohlarga qulayliklar yaratish maqsadida temir yo‘l tortish, vokzal barpo etish hamda aeroport qurish ishlari jadallik bilan davom etmoqda.

Yana bir yirik loyiha — Sharof Rashidov tumanida 131 gektar tog‘ adirliklarida qiymati 50 million dollar bo‘lgan ko‘p tarmoqli ekoturizm majmuasi foydalanishga topshirildi. Ushbu loyihalar va sayyohlar uchun yaratilayotgan imkoniyatlar natijasida viloyatimizga 364 ming xorijiy va 1,4 million mahalliy sayyoh tashrifi kuzatilib, turizm xizmatlari eksporti 53 million dollarga yetkazildi.

Ijro intizomi taraqqiyotni harakatga keltiruvchi kuch, davlat va jamiyat o‘rtasidagi ishonch ko‘prigidir. Hududlarda har bir qarorning amalda o‘z ifodasini topishi, shubhasiz, xalqimizning farovon hayotini ta’minlashga, yurtimizning yanada qudratli va ravnaq topgan davlatga aylanishiga xizmat qilaveradi.

Samarali ijro intizomi shunchaki ma’muriy boshqaruv mexanizmi emas, yangi O‘zbekistonni barpo etish, Uchinchi Renessans poydevorini shakllantirish va xalqimizning farovon hayotini ta’minlashning eng birlamchi kafolatidir. Zero, samarali ijro intizomi taraqqiyotning eng ishonchli va mustahkam poydevoridir.

Munosabat

MILLAT KELAJAGIGA E’TIBOR

So‘nggi o‘n yilda o‘qituvchilik kasbi nufuzini yuksaltirish, pedagoglarni qo‘llab-quvvatlash va munosib mehnat sharoitlarini yaratish borasida keng ko‘lamli islohotlar qilindi. Eng avvalo, ular yosh avlodga bilim va tarbiya berishga to‘liq bag‘ishlanishi uchun majburiy mehnat, ortiqcha qog‘ozbozlik hamda kasbiy faoliyatiga aloqador bo‘lmagan yumushlardan xalos etildi.

Ustoz va murabbiylarga imtiyozli iste’mol kreditlari ajratilishi, olis va chekka hududlarga borib faoliyat yuritayotgan yuqori malakali pedagoglar uchun qo‘shimcha ustamalar belgilanishi, fidoyi o‘qituvchilarning yuksak davlat mukofotlari bilan taqdirlanayotgani yangi O‘zbekistonda ta’lim sohasiga, ayniqsa, ustoz va murabbiylar mehnatiga bo‘lgan e’tibor va munosabat tubdan o‘zgarganining yorqin ifodasidir.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyada o‘qituvchining maqomi alohida belgilab qo‘yilgani davlat tomonidan ilm-fan, ma’rifat va ta’lim sohasini rivojlantirishga ustuvor ahamiyat qaratilayotganining yaqqol tasdig‘idir. Bu esa ustoz va murabbiylarning huquq va qonuniy manfaatlarini ta’minlash,



Ravshan FOZILOV,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati

sha’ni, qadr-qimmati va kasbiy nufuzini yanada mustahkam himoyalashga xizmat qilmoqda.

2024-yil 1-fevralda qabul qilingan “Pedagogning maqomi to‘g‘risida”gi qonun ustoz va murabbiylarning huquqiy maqomini yanada mustahkamladi. “Pedagog xodimlarning xizmat vazifalarini bajarishiga to‘sqinlik qilganlik uchun javobgarlik kuchaytirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksiga hamda O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksiga qo‘shimcha va o‘zgartishlar kiritish haqida”gi qonun esa tom ma’noda jamiyatda muallimlar qadr-qimmatini yuksaltirdi.

Bugungi kunda ushbu hujjat pedagoglarni majburiy mehnatga jalb qilish bilan bog‘liq huquqbuzarliklar, pedagog xodimlarning kasbiy faoliyatiga qonunga xilof ravishda aralashganlik uchun javobgarlikni kuchaytirishga, ularning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta’minlashga xizmat qilmoqda.

O‘qituvchi va murabbiylar kuni arafasida “Yangi O‘zbekiston” universitetida ustoz va murabbiylar bilan bo‘lib o‘tgan uchrashuvda davlatimiz rahbari tomonidan pedagoglarning jamiyatdagi nufuzini yanada oshirish, ular mehnatini munosib rag‘batlantirish va yangi imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan muhim tashabbuslar ilgari surildi.

Aytish joizki, tariximizdagi buyuk siymolar kamoloti ortida ularga ilm va tarbiya bergan, hayot yo‘lini ko‘rsatgan ustozlarning beqiyos mehnati mujassam. Uchrashuvda Imom Buxoriy, Beruniy, Amir Temur va Alisher Navoiy kabi siymolarni yetishtirgan ustozlar “odamiylik bog‘ining bog‘bonlari” sifatida e’tirof etildi. Bu esa ustoz shaxsining jamiyat hayotidagi o‘rnini yanada yuksak baholash, yosh avlod tarbiyasida muallim mehnatining ahamiyatini anglash va pedagog kasbiga hurmatni mustahkamlashga xizmat qiladi. Ayniqsa, ta’limning barcha bo‘g‘inlarida faoliyat yuritayotgan ilg‘or va fidoyi pedagoglarni munosib rag‘batlantirish maqsadida jadid bobomiz Abdulla Avloniy nomidagi alohida davlat mukofotini ta’sis etish tashabbusi minglab ustozlar qalbidagi ezgu orzu va intilishlarga hamohang bo‘ldi.

Fundamental fanlar o‘qituvchilari uchun rag‘batning yangi tizimi joriy etilishi, milliy sertifikatga ega pedagoglarga 50 foiz ustama to‘lanishi, har yili 208 ta tuman va shaharning lider o‘qituvchilariga 30 million so‘mdan mukofot berilishi, yana ming o‘qituvchi xorijda stajirovka o‘tashi pedagoglarning bilim va salohiyatini oshirish, ilg‘or tajribalarni ta’lim jarayoniga tatbiq etish, sifatli ta’lim orqali kelajak avlodning intellektual salohiyatini yuksaltirishga turtki beradi.

Kamida 15 yillik stajga ega pedagoglarning farzandlariga oliygoh kontrakti uchun foizsiz kredit ajratilishi, xorijiy va milliy sertifikat olgan muallimlarning imtihon xarajatlari to‘liq qoplanishi ustozlar mehnatiga yuksak



ehtiromning yana bir ifodasidir. Bunday imkoniyatlar esa pedagog kasbi nufuzini yanada oshirish, o‘qituvchilarni kasbiy rivojlanishga rag‘batlantirish hamda ta’lim tizimida yuqori malakali kadrlar salohiyatini mustahkamlashga zamin yaratadi.

Xorazmiy, Farg‘oniy, Beruniy, Ibn Sino, Mendeleyev nomidagi xalqaro va mintaqaviy olimpiadalar g‘oliblarini tayyorlagan pedagoglarga to‘g‘ridan to‘g‘ri oliy toifa berish tizimi joriy etilishi, shubhasiz, o‘qituvchining bilim, tajriba va mashaqqatli mehnatini munosib e’tirof etishga xizmat qiladi.

Yangi o‘quv yilidan boshlab 100 ta maktabning bittadan sinfida matematika, informatika va tabiiy fanlarni ingliz tilida o‘qitish amaliyoti yo‘lga qo‘yilishi ta’lim sifatini yangi bosqichga olib chiqishga qaratilgan muhim qadamdir. Bu loyiha doirasida faoliyat yuritadigan o‘qituvchilar hamda maktabga tayyorlov guruhi pedagoglariga 100 foiz ustama to‘lanishi ularni qo‘llab-quvvatlash va sifatli ta’lim jarayonini ta’minlashga xizmat qiladi. Eng muhimi, yoshlarning xorijiy tillarni o‘rganishga qiziqishini oshirish, zamonaviy bilimlarni o‘zlashtirish imkoniyatlarini kengaytirishga zamin hozirlaydi.

Bular yurtimizda ta’lim-tarbiya sohasida, ustoz va murabbiylar hamda ularning farzandlari hayotida yangi, mazmunan boy davr boshlanayotganini anglatadi. Zero, ilm-ma’rifatga, o‘qituvchi mehnatiga yuksak e’tibor mamlakatning ertangi taraqqiyoti uchun mustahkam poydevor yaratadi.

YANGI O‘ZBEKISTON

DAVR NAFASI

3

2026-yil 3-oktabr, 205-son

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz.uz_news

Prezidentimiz navbatdagi istiqbol maqsadni belgilab berdi: yangi O‘zbekistonni nafaqat olimpiada chempioni, balki dunyo shaxmat markaziga aylantirish. Buning uchun mamlakatimizda tajriba, natija va yoshlarga namuna bo‘ladigan chempionlar borligi ta’kidlandi.

NOTINCH DUNYODAGI TINCH, BARQAROR MAMLAKAT



Nodir MAHMUDOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Boshlanishi 1-betda

Tashrif dasturiga muvofiq, Belgrad shahrida oliy darajadagi muzokaralar hamda ikki mamlakat rasmiylari va ishbilarmon doiralari vakillari ishtirokida biznes-forum o‘tkazildi.

Muloqotlar kun tartibida O‘zbekiston — Serbiya ko‘p qirrali sherikligini yanada mustahkamlash masalalari ko‘rib chiqildi. Savdo-iqtisodiy va investitsiyaviy hamkorlikni kengaytirish hamda transport, mashinasozlik, yengil va oziq-ovqat sanoati, qishloq xo‘jaligi, farmatsevtika, axborot texnologiyalari kabi ustuvor yo‘nalishlarda qo‘shma loyihalarni amalga oshirishga alohida e’tibor qaratildi. Tartibli mehnat migratsiyasi sohasida hamkorlikni yo‘lga qo‘yish, hududlararo va madaniy-gumanitar aloqalarni kengaytirish masalalari muhokama qilindi.

Belgrad muzokaralari yakunlari bo‘yicha ikki mamlakat rahbarlari Strategik sheriklik munosabatlarini o‘rnatish to‘g‘risidagi qo‘shma deklaratsiyani imzoladi, ular huzurida ikki tomonlama hujjatlar almashildi.

Tashrif doirasida O‘zbekiston Prezidentini Serbiyaning oliy davlat mukofoti — Katta zanjirli Serbiya Respublikasi ordeni bilan taqdirlash marosimi bo‘lib o‘tdi. Mamlakatlar o‘rtasidagi ko‘p qirrali munosabatlarni mustahkamlashga qo‘shgan ulkan hissasi uchun Prezidentimizga ushbu ordenni Serbiya rahbari Aleksandr Vuchich topshirdi.

Davlatimiz rahbari yuksak mukofot uchun chuqur minnatdorlik bildirib, uni Serbiya xalqining O‘zbekistonga bo‘lgan yuksak hurmati, mustahkamlanib borayotgan do‘stlik va ikki tomonlama munosabatlarni yanada rivojlantirishga qat’iy intilish ramzi deb bilishini ta’kidladi.

Tashqi siyosat xaritasining navbatdagi manzili Osiyo mintaqasi — Koreya Respublikasi bo‘ldi. O‘zbekiston Prezidenti ushbu mamlakat rahbarining taklifiga binoan 13-sentabr kuni davlat tashrifi bilan Seul shahriga keldi. 3 kun davomida davlatimiz rahbari Koreya Respublikasi Prezidenti Li Chje Myon bilan tor doirada va kengaytirilgan tarkibda muzokaralar, Milliy Assambleya Spikeri Cho Chjon Shik, Bosh vazir Xan Son Suk, yirik kompaniyalar va moliya institutlari rahbarlari bilan uchrashuvlar o‘tkazdi.

O‘zbekiston bilan Janubiy Koreya o‘rtasidagi alohida strategik sheriklik munosabatlarini yanada mustahkamlash va kengaytirish, hamkorlikning ustuvor yo‘nalishlarida kooperatsiyani chuqurlashtirish hamda madaniy-gumanitar almashinuvlarni faollashtirish masalalari ko‘rib chiqildi.

Prezidentimiz birinchi “Markaziy Osiyo — Koreya Respublikasi” sammitida ham ishtirok etdi. Unda savdo, investitsiyalar, infratuzilma, raqamli transformatsiya, ilm-fan, texnologiyalar va boshqa ko‘plab sohalardagi hamkorlik istiqbollari muhokama qilindi. Shavkat Mirziyoyev hamkorlikning beshta strategik yo‘nalishi bo‘yicha o‘z takliflarini ilgari surdi.

Iqtibos: “Biz istiqbolni Koreya biznesining kadrlarga bo‘lgan ehtiyojlarini mintaqamizning ta’lim sohasidagi salohiyati bilan bevosita bog‘lashda ko‘rmoqdamiz. Bunday yondashuv ko‘plab iste’dodli yoshlarga kasbiy rivojlanish uchun yo‘l ochadi va qo‘shma loyihalarimiz bo‘yicha yuqori malakali mutaxassislar tayyorlashni kafolatlaydi”.

Bundan tashqari, davlatimiz rahbari O‘zbekiston — Janubiy Koreya biznes forumida nutq so‘zladi. Janubiy Koreya O‘zbekistonning vaqt sinovidan o‘tgan do‘sti va alohida strategik sherigi ekanini, savdo-iqtisodiy va investitsiyaviy hamkorlik esa ikki tomonlama ko‘p qirrali aloqalarning ustuvor yo‘nalishlaridan biri ekanini ta’kidladi.

Tashrif chog‘ida ushbu mamlakatda mehnat qilayotgan va tahsil olayotgan vatandoshlarimiz bilan uchrashuv o‘tkazildi. Davlatimiz rahbari yurtimizning ijtimoiy-iqtisodiy rivojiga qo‘shayotgan salmoqli hissasi uchun vatandoshlarimizga minnatdorlik izhor etib, ularning har bir tashabbusi batafsil o‘rganilishini, eng muhim loyihalar har tomonlama amaliy qo‘llab-quvvatlanishini bildirdi.

Darvoqe, Prezidentimizning davlat tashrifi munosabati bilan mamlakatning nufuzli nashrlari — “Chosun Ilbo”ning ingliz tilidagi platformasi “The Chosun Daily” hamda “The Korea Herald” gazetasida davlatimiz rahbarining “O‘zbekiston va Koreya Respublikasi: o‘zgarishlar davrida kelajak sari intilayotgan hamkorlik” maqolasi chop etildi.

Maqolada O‘zbekiston — Janubiy Koreya do‘stligining tarixiy asoslari va yuksak ishonchga tayangan alohida strategik sheriklik istiqbollari yoritilgan. Mamlakatlarimiz nafaqat vaqt sinovidan o‘tgan hamkorlar, balki mushtarak qadriyatlar va insoniy rishtalar bog‘lab turgan yaqin do‘stlar ekani ta’kidlangan.

“Markaziy Osiyo va Koreya Respublikasi tinchlik, innovatsiyalar, o‘zaro ishonch va umumiy farovonlikka asoslangan hamkorlikning yangi makonini shakllantira olishiga chin dildan ishonaman”, deyiladi maqolada.

Ichki iqtisodiy safarbarlik

Sentabr oyida Prezidentimiz Toshkent shahridagi bunyodkorlik ishlari bilan tanishdi, Olmazor tumanida bo‘lib, faollar bilan uchrashdi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi va Andijon viloyatiga tashrif buyurdi.

Davlatimiz rahbari tomonidan o‘tgan yil avgust oyida poytaxtimiz markazida barpo etilajak O‘zbekiston Milliy muzeyi qurilishiga tamal toshi qo‘yilgan edi.

11-sentabr kuni Prezidentimiz muzey hududida bajarilayotgan keng ko‘lamli qurilish-montaj ishlari, obyektlar poydevori va muhandislik infratuzilmasini barpo etish jarayoni bilan tanishdi. Majmua yurtimizning boy tarixi, madaniyati va kelajak intilishlarini namoyon etadigan muhim madaniy maskan bo‘lishi ta’kidlandi.

Shu kuni Olmazor tumani “Yoshlik” talabalar shaharchasi hokimligida tashkil etilgan vaziyatlar markazi faoliyati, Qichqiriq mahallasidagi obodonlashtirish ishlari va aholi uchun yaratilgan sharoitlar bilan tanishdi, ishlab chiqarish subyektlari hamda ta’lim muassasalaridagi imkoniyatlarni ko‘rdi, Toshkent shahrini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, investitsiya va bandlikni oshirish, mahallalarda zamonaviy infratuzilma yaratish masalalari bo‘yicha videoselektor yig‘ilishi o‘tkazdi.

Yig‘ilishda bugungi murakkab sharoitda har bir tuman va mahallaning mavjud imkoniyatlarini to‘liq ishga solish, qo‘shimcha qiymat, investitsiya va yuqori daromadli ish o‘rinlarini ko‘paytirishga yangicha yondashish zarurligi aytildi. Poytaxt tumanlari o‘z salohiyatidan kelib chiqib, aniq iqtisodiy



yo‘nalishlarga ixtisoslashishi lozimligi qayd etildi.

Prezidentimiz 18-sentabr kuni Qoraqalpog‘iston Respublikasiga keldi. Dastlab Kegeyli tumanidagi “ADM Agro” korxonasining sanoatlashgan intensiv bog‘ida yo‘lga qo‘yilgan zamonaviy agrar tajribani ko‘zdan kechirdi. So‘ng muloqotlar “Kegeyli baraka naslli parranda” korxonasi faoliyati bilan tanishuv chog‘ida davom etdi. Shuningdek, Nukus tumanidagi Diyqan arna mahallasida bo‘lib, aholi uchun yaratilgan sharoitlar, Qoraqalpog‘iston ilmiy-amaliy tibbiyot akademiyasi faoliyati bilan tanishdi.

Davlatimiz rahbari Qoraqalpog‘istonga tashrifi doirasida yangi loyihalarni ishga tushirish va qurilishiga start berish marosimida ishtirok etdi. 592 million dollarlik 11 ta loyiha ishga tushirildi hamda xorijiy hamkorlar ishtirokida amalga oshiriladigan 7 milliard dollarlik 47 ta yangi loyiha qurilishiga start berildi. Ularning hisobiga 8 mingta yuqori daromadli ish o‘rni yaratiladi.

Xususan, Qorao‘zak tumanida umumiy quvvati 300 megavatt bo‘lgan ikkita shamol elektr stansiyasi va 100 megavattli elektr energiyasini saqlash tizimi ishga tushirildi. Ishga tushirilgan obyektlar qatorida Nukus shahrida Birlashgan Arab Amirliklari bilan hamkorlikda barpo etilgan Shayx Xalifa









Sentabr sarhisobi

nomidagi shifoxona ham bor. Qiymati 27 million dollar bo‘lgan 100 o‘rinli muassasa zamonaviy tibbiy jihozlar bilan ta’minlangan.

Shu yerning o‘zida Nukus shahrida yosh oilalar uchun barpo etiladigan “Yangi O‘zbekiston” turar joy massivi taqdimoti o‘tkazildi. Massiv uchun 270 gektar maydon belgilanib, loyiha hujjatlarini ishlab chiqish boshlangan. Bu yerda 30 ming aholiga mo‘ljallangan ko‘p qavatli uy-joylar, yirik biznes markazlari, savdo, xizmat ko‘rsatish va ko‘ngilochar obyektlar quriladi.

Prezidentimiz raisligida 19-sentabr kuni Nukus shahrida Qoraqalpog‘istonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish masalalariga bag‘ishlangan yig‘ilish bo‘lib o‘tdi. Unda mavjud yer, mineral va energetika resurslarini yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulotlarga aylantirish masalasiga alohida e’tibor qaratildi. Aholi uchun qulay shahar va mahalla muhitini yaratish masalalari ham ko‘rib chiqildi.

Davlatimiz rahbari har bir shahar va ovulda qulay turmush sharoitini yaratishda ko‘cha va mahalla biylari, nuroniylarning tajribasi, yoshlarning g‘ayrati va aholi tashabbuskorligini birlashtirish muhimligini ta’kidladi.

Mamlakatimiz yetakchisining navbatdagi tashrif manzili Andijon viloyati bo‘ldi. 23-24-sentabr kuni Shavkat Mirziyoyev yangi aeroport qurilishi, Andijon tumanidagi trikotaj mahsulotlari ishlab chiqaruvchi “Eco Cotton” korxonasi faoliyati, tumanda kichik gidroelektr stansiyalari uchun zarur uskunalar ishlab chiqarish bo‘yicha amalga oshirilayotgan loyihalar bilan tanishdi. Yangi investitsiya loyihalarini ishga tushirish va ularning qurilishiga start berish marosimida esa umumiy qiymati 9 milliard 400 million dollar bo‘lgan 206 ta loyiha qamrab olindi. Shundan 2 milliard 50 million dollarlik 98 loyiha ishga tushirilgan bo‘lsa, 7 milliard 350 million dollarlik 108 loyihaning qurilishi boshlandi.

Ushbu loyihalar energetika, qurilish, to‘qimachilik, mashinasozlik, ta’lim, turizm, logistika, farmatsevtika va sog‘liqni saqlash kabi muhim sohalarni qamrab olgan. Ular viloyatning barcha shahar va tumanida amalga oshiriladi.

Tashrifning ikkinchi kuni Prezidentimiz raisligida Andijon viloyatini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash va aholi daromadlarini oshirish masalalari bo‘yicha yig‘ilish o‘tkazildi.

Yig‘ilishda hududni izchil iqtisodiy yuksaltirish, ijtimoiy birdamlik va o‘sishga xizmat qiladigan taklif hamda tashabbuslar ilgari surildi. Keyingi yillarda viloyatda barcha sohalar bo‘yicha ko‘plab yutuqlarga erishildi. Masalan, shu yilning birinchi yarmida viloyat iqtisodiyoti 8,8 foiz o‘sgan. Ayni ko‘rsatkich sanoatda 9,2 foizni, xizmatlar sohasida 16,1 foizni tashkil etgan.

Yangilanishlar raqamlar bilan emas, har bir oilaning kundalik hayotiga qanday o‘zgarish olib kirgani bilan baholanadi. Ana shu nuqtayi nazardan, yangi marralar belgilab olindi. Tabiiyki, ularga erishishning aniq rejasi, iqtisodiy-ijtimoiy xaritasi ham ko‘rsatib berildi. Jumladan, yig‘ilishda investitsiyalar hajmini oshirish borasidagi ishlar tahlil qilindi.

Islohotlarda tizimlilik va izchillik

Prezidentimiz raisligida 3-sentabr kuni kambag‘allikni qisqartirish va aholi daromadlarini oshirish bo‘yicha ishlarni yangi bosqichga olib chiqish masalalari yuzasidan videoselektor yig‘ilishi bo‘lib o‘tdi.

Keyingi yillarda kambag‘allikni qisqartirish, aholini daromad manbalari bilan ta’minlash va mahalla darajasida iqtisodiy imkoniyatlarni kengaytirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylangan. Bu maqsadlar uchun hududlarga katta vakolat, moliyaviy resurs va infratuzilmaviy imkoniyatlar berildi, har bir oila bilan manzilli ishlash tizimi yo‘lga qo‘yilgan.

Natijada yil boshida 5,8 foizni tashkil etgan kambag‘allik darajasi bugungi kunga kelib 3,9 foizga tushdi. Ehtiyojmand aholi soni 2 million 200 mingdan 1,5 million nafarga kamaydi. Ishlar to‘g‘ri tashkil etilgan 49 ta tuman va 3 ming 429 ta mahalla ishsizlik va kambag‘allikdan xoli hududga aylanib bormoqda.

Shu bilan birga, yig‘ilishda hududlar kesimida natijalar bir xil emasligi ko‘rsatib o‘tildi, mutasaddilar va hududlar rahbarlarining axboroti tinglanib, belgilangan vazifalarni tizimli va natijador tashkil etish bo‘yicha tegishli ko‘rsatmalar berildi. Hududlarda ishni tashkil etish tartibi tubdan o‘zgartirilib, asosiy vakolat va resurslarni tuman darajasiga tushirish belgilandi.

9-sentabr kuni esa hududlarda aholi bandligi va daromadini oshirish borasida qilinayotgan ishlar yuzasidan kengaytirilgan yig‘ilish o‘tkazildi. Unda 1 hafta avval belgilangan yangi tizimga muvofiq, har bir viloyat va tumanda hokim boshchiligida shtablar tashkil etilib, bandlik idoralari va iqtisodiy kompleks tashkilotlari odamlarni ish bilan ta’minlash va daromadini oshirish masalalarini joyning o‘zida hal qilishi lozimligi ta’kidlandi.

Yig‘ilishda ana shu vazifalar ijrosi, shtablar faoliyati va joylarda mavjud imkoniyatlardan foydalanish holati tanqidiy ko‘rib chiqildi. Qayd etilganidek, barcha hududlarda shtablar ish boshladi. Ularning faoliyatini samarali tashkil etish uchun iqtisodiy kompleksdan har bir viloyatga 2 nafardan, jami 28 mas’ul rahbar biriktirildi. Islohotlar shtabi, vazirliklar, banklar va mahalliy hokimliklar yangi tizim asosida ishni boshlagan.

Davlatimiz rahbari raisligida va huzurida o‘tgan boshqa qator taqdimot hamda yig‘ilishlarda ham e’tibor jamiyatda kechayotgan keng qamrovli islohotlar jarayonida tizimlilik va izchillikni ta’minlashga qaratildi. Xususan, aholi va qishloq xo‘jaligini ro‘yxatga olish yakunlari hamda milliy statistika tizimida islohotlarni jadallashtirish, tibbiyot va farmatsevtika sohasida kadrlar tayyorlash, madaniy merosni asrab-avaylash, “Yashil makon” umummilliy loyihasini yangi bosqichga olib chiqish masalasida takliflar taqdimoti bilan tanishildi.

Mehr daryosi, ezgulik bulog‘i, ma’rifat quyoshi!

Har yili Vatanimiz mustaqilligining qutlug‘ bayramiga uyg‘un va hamohang holda Bilimlar kuni ham keng nishonlanadi. Davlatimiz rahbari shu munosabat bilan mamlakatimiz maktablari o‘quvchilari va ustoz-murabbiylariga tabrik yo‘lladi. Ushbu quvonchli ayyomda beg‘ubor nigohlarida hayrat va hayajon uchqunlari porlab, katta orzu-intilishlar bilan maktab ostonasiga qadam qo‘yayotgan 800 mingga yaqin o‘g‘il-qizimizga, ota-onalar va pedagoglar jamoatchiligiga ezgu tilaklarini bildirdi.

Iqtibos: “Keyingi yillarda ta’lim-tarbiya sohasida amalga oshirayotgan keng ko‘lamli islohotlarimiz tufayli yangi O‘zbekiston maktablari butunlay yangicha qiyofa kasb etib, ta’lim sifati takomillashib borayotganini barchamiz ko‘rib turibmiz.

Ana shunday muhitda ulg‘ayib, kamolga yetayotgan, o‘qish, kasbiy ta’lim, “Ay-ti”, ijodiy izlanishlar, sport, jamoat ishlarida dastlabki yutuqlari bilan ota-onalar va ustozlarni xursand qilayotgan o‘g‘il-qizlarimiz — bizning nurli kelajagimiz, oltin fondimizdir”.

Yurtimizda 1-oktabr kuni nishonlanadigan O‘qituvchi va murabbiylar kuni shukuhi esa Sentabrning so‘nggi dekadasidan sezila boshlaydi. Joylarda bayram tadbirlari o‘tkazilib, ustozlarga ehtirom ko‘rsatish va fidoyi mehnatini e’tirof etish mutasaddilar diqqat markazida bo‘ladi.

Prezidentimizning 29-sentabr kuni e’lon qilingan farmoniga muvofiq, yangi O‘zbekistonda ta’lim-tarbiya tizimini xalqaro standartlar asosida rivojlantirish, sohada islohotlar samaradorligini oshirish, o‘quv jarayoniga ilg‘or tajribalar, innovatsion pedagogik va raqamli texnologiyalarni keng joriy etish ishlariga qo‘shayotgan munosib hissasi, farzandlarimizni Vatanga muhabbat va sadoqat, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash borasidagi ibratli faoliyati, shuningdek, yurtimizda ta’limga oid investitsiya loyihalarini amalga oshirib kelayotgani uchun bir guruh o‘qituvchi va murabbiylarimiz mukofotlandi.

Davlatimiz rahbari bayram arafasida ustoz va murabbiylar bilan uchrashib, ta’lim sohasidagi yangi tashabbuslarni belgilab berdi, ta’limni rivojlantirish yangi O‘zbekistonni barpo etishning eng muhim bo‘g‘ini ekanini ta’kidladi. Kelgusi vazifalar tahliliga to‘xtalar ekan, maktab bitiruvchisi katta hayotga kasb va xorijiy tilni egallab chiqishi zarurligini qayd etdi. Maktab direktorlariga bu borada qo‘shimcha vakolatlar beriladi, hamkorlikka tayyor tadbirkorlar uchun sharoit yaratiladi.

O‘quvchi o‘rinlariga talab ortib borayotgani munosabati bilan xususiy maktablarni qo‘llab-quvvatlash choralari ham e’lon qilindi. O‘quv yuklamasi yuqori 52 ta tumanda ularni tashkil etish uchun imtiyozli kredit va subsidiya ajratiladi. Bo‘sh turgan davlat binolari xususiy maktablarga o‘n yilga bepul ijaraga beriladi, xalqaro akkreditatsiya xarajatining yarmi qoplanadi. Farzandi xususiy maktabda o‘qiydigan ota-onalar uchun soliq olinmaydigan daromad chegarasi ikki barobar oshiriladi.

Oliy ta’lim haqida so‘z borar ekan, mamlakatimizda talabalar soni 1 million 600 mingga yetgani, yettita oliygoh 17 ta fan bo‘yicha xalqaro reytingga kirgani qayd etildi. Shu bilan birga, Prezidentimiz universitetlardagi darsliklar mazmuni va mutaxassislar tayyorlash sifati bugungi talabga to‘liq javob bermayotganini tanqid qildi. Muhandislik va tibbiyot oliygohlari zamonaviy yo‘nalishlar bo‘yicha yangi o‘quv adabiyotlarini yaratish, ilg‘or xorijiy kitoblarni tarjima va moslashtirish ishlarini kuchaytirishi zarur.

Uchrashuvda ta’lim va ilm-fan fidoyilarining bir guruhiga davlat mukofotlari topshirildi. Taqdirlanganlar orasida ustozlar bilan birga ta’lim rivojiga hissa qo‘shayotgan tadbirkor va xorijiy hamkorlar ham bor.

Shu kuni davlatimiz rahbarining O‘zbekiston o‘qituvchi va murabbiylariga tabrigi e’lon qilindi. Prezidentimiz o‘z hayotini dunyodagi eng ulug‘ va sharafli ishga — yosh avlod tarbiyasiga bag‘ishlab kelayotgan mo‘tabar zotlarni, yurtimizdagi barcha pedagog xodimlarni 1-oktabr — O‘qituvchi va murabbiylar kuni bilan chin yurakdan muborakbod etdi.

Iqtibos: “Milliy yuksalishning tayanch asosi — maktab, texnikum va oliygohlar ekanini siz, azizlar albatta yaxshi tushunasiz. Shu bois, bu borada biz avvalo sizlarga — muhtaram ustoz va murabbiylarimizga tayanamiz”.

Aqllar jangi suvoriylari

Ko‘hna va hamisha navqiron Samarqand mezbonlik qilgan 46-Butunjahon shaxmat olimpiadasi yuksak saviyadagi tashkilotchilik ruhi bilan birga o‘zbekistonlik shaxmatchilarning olamshumul g‘alabasi bilan ham tarix zarvaraqlariga yozildi. Vakillarimizning yuqori darajadagi o‘yini butun dunyoni lol qoldirdi. Aql va tafakkur borasida yoshlarimiz hech kimdan qolishmasligini yana bir bor amalda isbotladi.

Nodirbek Abdusattorov, Javohir Sindorov, Nodirbek Yoqubboyev va Muhiddin Madaminovdan iborat jamoamiz hal qiluvchi so‘nggi turda ukrainalik shaxmatchilarni mag‘lub etdi. Shu tariqa yigitlarimiz olimpiada chempioni degan yuksak sharafga sazovor bo‘ldi. Zafarli natija munosabati bilan Prezidentimiz shaxmat bo‘yicha O‘zbekiston terma jamoasi a’zolariga tabrik yo‘lladi.

Iqtibos: Sizlar — Yangi O‘zbekiston qahramonlari, jahon shaxmat olamida yangi tarix yaratgan oltin avlodsiz. Butun xalqimiz sizlar bilan cheksiz faxrlanadi, g‘ururlanadi”.

Prezidentimiz 28-sentabr kuni “46-Butunjahon shaxmat olimpiadasi va 3-Parashaxmat olimpiadasi g‘oliblari va ishtirokchilarini mukofotlash to‘g‘risida”gi farmonni imzoladi. Mamlakatimiz rahbari shaxmat va parashaxmat bo‘yicha O‘zbekiston terma jamoalari a’zolari, ularning yaqinlari, ustoz va murabbiylari bilan uchrashdi. G‘oliblarni tabriklab, ularga mukofotlarni topshirdi.

Prezidentimiz navbatdagi istiqbol maqsadni belgilab berdi: yangi O‘zbekistonni nafaqat olimpiada chempioni, balki dunyo shaxmat markaziga aylantirish. Buning uchun mamlakatimizda tajriba, natija va yoshlarga namuna bo‘ladigan chempionlar borligi ta’kidlandi. Ulardan ilhomlangan minglab bolalarning shaxmatga kirib kelishi yangi iste’dodlarni kashf etish uchun mustahkam zamin yaratadi.

Shu maqsadda har bir viloyat, tuman va mahallada iqtidorli bolalarni erta aniqlash, ularni kuchli ustozlarga biriktirish va xalqaro turnirlarda muntazam qatnashishiga sharoit yaratish vazifasi qo‘yildi. Qizlar shaxmati va parashaxmatni rivojlantirish bo‘yicha alohida tizim tashkil etiladi. Toshkent xalqaro shaxmat akademiyasining Samarqand, Xorazm va Farg‘onada mintaqaviy filiallari ochiladi.

* * *

Shuningdek, oy mobaynida Prezidentimiz qator nufuzli xorijiy delegatsiya rahbarlarini qabul qildi, turli davlat va hukumat rahbarlari bilan telefon orqali muloqot o‘tkazdi. Parlamentlararo Ittifoqning XII Yosh parlament a’zolari butunjahon konferensiyasi ishtirokchilariga, O‘zbekiston turizm sohasi xodimlariga, O‘zbekiston va Belarus tadbirkor ayollarining to‘rtinchi biznes forumi ishtirokchilariga tabrik yo‘lladi.

Raqamlarning haqiqiy qiymati

Sentabrning siyosiy manzarasiga nazar tashlasak, mamlakat boshqaruvida iqtisodiyot masalasi markaziy pozitsiyasini tobora mustahkamlab borayotgani ko‘rinadi. Investitsiya, sanoat, eksport, yangi ish o‘rinlari, energetika va transport — bular shunchaki iqtisodiy atamalar emas. Ular bugun siyosiy kun tartibining asosiy muloqot tiliga aylangan.

Davlatimiz rahbari tashrif buyurgan hududlarda milliardlab dollarlik loyihalar haqida so‘z boradi. Yangi zavodlar, energetika obyektlari, logistika markazlari, texnologiyalar haqida rejalar e’lon qilinadi. Lekin har bir milliard dollar ortida oddiy insonlar taqdiri bor: ish izlayotgan yosh, daromadini oshirish va farovonligini ta’minlashga harakat qilayotgan oila, farzandiga munosib kelajak hozirlash qayg‘usida tunni kunga ulayotgan ota-ona... Shundan kelib chiqib, bugungi iqtisodiy raqamlarning haqiqiy qiymati ularning qog‘ozdagi hajmi bilan emas, odam hayotiga qanchalik tez va sezilarli kirib borishi bilan o‘lchanayotgani ma’lum bo‘ladi.

JSTga qo‘shilish boj tariflaridan tashqari subsidiyalar siyosati, davlat korxonalari faoliyati, texnik reglamentlar, sanitariya va fitosanitariya normalari, intellektual mulk, xizmatlar bozori hamda savdo himoya choralarini xalqaro majburiyatlar bilan muvofiqlashtirishni talab etadi.

YANGI O‘ZBEKISTON

www.yuz.uz yuz.uz_news yuz.uz_news

2026-yil 3-oktabr, 205-son



GLOBAL KUN TARTIBIMIZDA
MULOQOT, OCHIQLIK VA INSON QADRI

Bugungi xalqaro munosabatlar tizimi bir vaqtning o‘zida geosiyosiy raqobat, qurolli mojarolar, iqtisodiy noaniqlik, iqlim o‘zgarishi, texnologik transformatsiya va demografik siljishlar kabi murakkab jarayonlarni boshdan kechirmoqda. O‘tgan oyda mana shunday sharoitda Nyu-Yorkda o‘tkazilgan BMT Bosh Assambleyasining 81-sessiyasi doirasida O‘zbekiston ilgari surgan yondashuvlar mamlakat tashqi siyosatida inson qadri, muloqot, xalqaro huquq va ochiqlik tushunchalari o‘zaro bog‘lanib borayotganini ko‘rsatdi.



Behzod SOIPOV,
siyosiy fanlar doktori,
dotsent

Ushbu sessiya xalqaro tizim uchun murakkab davrga to‘g‘ri keldi. Sessiya kun tartibida xalqaro xavfsizlik, global boshqaruv, rivojlanish va xalqaro institutlarning samaradorligi bilan bog‘liq masalalar markaziy o‘rin egalladi.

O‘zbekiston nomidan bildirilgan pozitsiyada tinchlik, taraqqiyot va inson qadr-qimmati o‘zaro bog‘liq tushunchalar sifatida talqin qilindi. Xususan, “Bizning tanlovimiz — inson qadri” degan formula hamda xalqaro huquq davlatlar vaziyatga qarab foydalanadigan vosita emas, barcha uchun umumiy qoida bo‘lishi lozimligi haqidagi fikr alohida e’tiborga molik.

Bu yondashuvni bugungi geosiyosiy sharoitda muayyan blok yoki kuch markazini tanlashdan ko‘ra, xalqaro huquq, muloqot va milliy manfaatlar o‘rtasidagi muvozanatga tayanuvchi siyosiy pozitsiya sifatida talqin qilish mumkin. Xalqaro huquqning universalligi haqidagi tamoyilning amaliy ahamiyati uning faqat bayon etilishida emas, balki turli vaziyatlarda izchil qo‘llanishida namoyon bo‘ladi.

Shu nuqtayi nazardan, BMT faoliyatini isloh qilish masalasi ham alohida mazmun kasb etadi. O‘zbekiston tomonidan qaror qabul qilish bilan cheklanmaydigan, ularni amalda bajarishga qodir va barcha davlatning ovozi eshitiladigan BMT zarurligi ta’kidlanmoqda. Xavfsizlik kengashini zamonaviy xalqaro voqelikka moslashtirish, global institutlarning vakillik darajasini oshirish kabi masalalar bugun faqat O‘zbekiston emas, ko‘plab davlatlarning tashqi siyosiy kun tartibida mavjud.

O‘zbekiston xalqaro institutlar samaradorligidagi muammolarni qayd etish bilan birga ulardagi ishtiroki va mas’uliyatini kengaytirishga intilmoqda. Bu yondashuv xalqaro tizimni chetdan kuzatishdan ko‘ra, uning qoidalari va mexanizmlari doirasida faol ishtirok etishga urg‘u berayotganini ko‘rsatadi.

Mazkur yondashuv, ayniqsa, Markaziy Osiyo masalasida yaqqol ko‘rinadi. Yaqin tarixda mintaqadagi davlatlar o‘rtasida chegaralar, suv resurslari, transport aloqalari va boshqa masalalar bo‘yicha murakkabliklar mavjud edi. Bugungi sharoitda esa savdo, transport, energetika, ekologiya va chegaraoldi hamkorligini umumiy manfaatlar doirasida ko‘rib chiqishga qaratilgan yondashuv kuchayayotgani qayd etilmoqda. Xalqaro munosabatlar nazariyasida buni “nol yig‘indi” mantig‘idan uzoqlashish bilan izohlash mumkin. Ya’ni bir davlatning manfaatini ikkinchi davlatning yo‘qotishi sifatida qabul qilish o‘rniga, o‘zaro bog‘liqlikdan umumiy foyda izlash imkoniyati paydo bo‘ladi.

Bu, o‘z navbatida, Markaziy Osiyoning xalqaro subyektligi uchun ham muhim. Mintaqa davlatlarining yirik kuch markazlari bilan ikki tomonlama aloqalari saqlanib qoladi. Biroq ichki ishonch va hamkorlik qanchalik mustahkam bo‘lsa, mintaqaning tashqi sheriklar bilan muzokaralarda mustaqil harakat qilish imkoniyati ham shunchalik kengayadi. Shu sababli yaxshi qo‘shnichilikni faqat ma’naviy-siyosiy tushuncha sifatida emas, balki muhim tashqi siyosiy resurs sifatida ham ko‘rish lozim.



Markaziy Osiyodagi tinchlik hamda xavfsizlik masalasi Afg‘oniston va uning mintaqadagi ishtiroki bilan chambarchas bog‘liq. O‘zbekistonning qo‘shni davlat borasidagi yondashuvi ana shu mantiqning davomidir. Afg‘onistonni faqat xavfsizlik tahdidi nuqtayi nazaridan ko‘rish muammoning barcha jihatini qamrab olmaydi. Shu ma’noda, pragmatik siyosat xavfsizlikni iqtisodiy bog‘liqlik, inson huquqlari va uzoq muddatli mintaqaviy barqarorlikdan ajratmay ko‘rib chiqishni talab qiladi. Markaziy Osiyo mintaqasining xalqaro hamjamiyat va investorlar uchun jozibador hamda yirik bozor sifatida taqdim etilishida Afg‘onistonning mintaqa davlatlari bilan munosabatlari, rivojlanish tendensiyalariga jalb etilishi, shuningdek, mintaqa davlatlarining jahon iqtisodiy institutlarning ishlashida namoyon bo‘ladi.

Barqaror va oldindan ma’lum savdo qoidalari eksportyor va investorlar uchun prognoz qilinadigan muhit yaratishga xizmat qiladi. JSTga a’zolikning real natijasi a’zolik faktining o‘zidan ko‘ra undan keyingi iqtisodiy siyosat, raqobat muhiti va milliy korxonalarning yangi sharoitga moslasha olish imkoniyatiga bog‘liq bo‘ladi.



Toshkent xalqaro moliya markazining tashkil etilishi iqtisodiy ochiqlik bilan bog‘liq yana bir muhim jarayondir. 2026-yil 13-iyuldagi konstitutsiyaviy qonun Toshkent xalqaro moliya markazi uchun maxsus huquqiy asosni belgiladi. Hujjatda markaz doirasida Angliya va Uels huquqi prinsiplari, maxsus tijorat sudi va xalqaro arbitraj mexanizmlarining amal qilishi nazarda tutilgan. 10-sentabrda qabul qilingan farmon bilan esa markaz boshqaruvining tashkiliy mexanizmlari belgilandi.

Investor kapital kiritishdan avval bir necha oddiy, ammo fundamental omillarga e’tibor qaratadi. Xususan, ular uchun shartnomalarning huquqiy jihatdan mustahkam himoyalanishi, nizolarni ko‘rib chiqish tizimining tezkor va xolisligi, sud qarorlarining amalda so‘zsiz ijro etilishi hamda regulyator siyosatining prognoz qilinuvchanligi o‘ta muhim. Shu ma’noda, Toshkent xalqaro moliya markazi O‘zbekistonning xorijiy kapitalga ochiqligi bilan bir qatorda mamlakat huquqiy institutlarining sifati va samaradorligini ham sinovdan o‘tkazadigan loyihadir.

Demografiya O‘zbekistonning uzoq muddatli taraqqiyotiga daxldor fundamental masalalardan. 2026-yilda mamlakatimizning mustaqillik davridagi ilk aholi va qishloq xo‘jaligini ro‘yxatga olish tadbirlari o‘tkazildi. BMTning Aholishunoslik jamg‘armasi (UNFPA) e’lon qilgan ma’lumotlarga ko‘ra, O‘zbekiston aholisi 39 milliondan oshadi. Ro‘yxat aholi tarkibi, migratsiya, bandlik, ta’lim va uy xo‘jaliklari haqidagi rejalashtirish uchun yangi ma’lumot bazasini yaratmoqda.

O‘zbekistonning shiddat bilan o‘sib borayotgan yosh aholisi mamlakatimizning eng katta boyligi va kelgusi iqtisodiy yuksalishining asosiy drayveridir. UNFPA tahlillariga ko‘ra, 2050-yilga qadar mehnatga layoqatli aholining muttasil ko‘payib borishi davlatimizga noyob demografik dividend taqdim etadi. Ushbu ulkan salohiyatni real iqtisodiy mo‘jizaga aylantirish yo‘lida inson kapitaliga tizimli investitsiya kiritilmoqda: sifatli ta’lim, zamonaviy kasbiy ko‘nikmalar, ilg‘or sog‘liqni saqlash tizimi va ish o‘rinlarini ochish shular jumlasidan. Ayniqsa, xotin-qizlar va yoshlarning iqtisodiy faolligini oshirish va ijtimoiy harakatchanligini qo‘llab-quvvatlash orqali O‘zbekiston jadal rivojlanayotgan, global maydonda o‘zining mustahkam o‘rni va yuqori raqobatbardoshligiga ega qudratli davlat sifatida yangi marralarni zabt etadi.

Bugungi xalqaro kun tartibida ekologiya va texnologiya ham an’anaviy xavfsizlik tushunchasining chegaralarini kengaytirmoqda. Orol dengizi bilan bog‘liq ekologik inqiroz suv resurslari va atrof-muhit muammolari bir davlat chegarasida qolmasligini yaqqol namoyon etmoqda. Markaziy Osiyoda iqlim, suv, energetika va demografiya masalalari tobora ko‘proq o‘zaro bog‘lanmoqda. Shu sabab kelajakdagi mintaqaviy hamkorlikning muhim sinovlaridan biri aynan ekologik resurslarni boshqarish bilan bog‘liq bo‘ladi.

Xuddi shuningdek, sun’iy intellektning rivojlanishi ham faqat texnologik yutuqlar masalasi emas. Raqamlashtirish davlat boshqaruvi, moliya, ta’lim va xizmatlar sifatini tubdan o‘zgartirmoqda. Biroq algoritmik diskriminatsiya, shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish, kiberxavfsizlik, javobgarlik va mehnat bozoridagi o‘zgarishlar kabi yangi masalalar ham paydo bo‘ladi. Texnologiyani import qilish nisbatan oson. Uni inson huquqlari va qonun ustuvorligi bilan uyg‘un boshqaradigan institutsional tizim yaratish esa ancha murakkab.

Sun’iy intellekt, ekologiya va demografiya bilan bog‘liq masalalar xavfsizlik tushunchasining an’anaviy chegaralari kengayayotganini ko‘rsatsa, bu jarayonning yana bir muhim qatlami ma’naviy-ma’rifiy barqarorlik masalasidir. Bugungi murakkab axborot muhitida diniy savodsizlik, mutaassiblik va murosasizlikka qarshi faqat ma’muriy yoki xavfsizlik choralariga tayanish yetarli emas. Uzoq muddatli barqarorlik diniy bilimni ilmiy asosda o‘rganish, tarixiy merosni xolis tadqiq etish hamda turli e’tiqod va madaniyat vakillari o‘rtasidagi muloqot uchun barqaror institutsional maydon yaratishni ham talab qiladi.

Shu jihatdan Toshkentdagi Islom sivilizatsiyasi markazining xalqaro minbarda tilga olinishi alohida ahamiyat kasb etadi. Markaz tarixiy yodgorliklar jamlangan muzey sifatidagina emas, balki Markaziy Osiyoning jahon ilm-fani va islom sivilizatsiyasi taraqqiyotiga qo‘shgan hissasini zamonaviy ilmiy til orqali namoyish etuvchi madaniy-ma’rifiy platforma sifatida shakllantirilmoqda.

Aslida, bunday yondashuv mamlakatimizning yangi tashabbusi emas, balki so‘nggi o‘n yillikda izchil shakllanib kelayotgan diniy-ma’rifiy siyosatining navbatdagi bosqichidir. Muhimi, “jaholatga qarshi ma’rifat” g‘oyasi faqat xalqaro minbarlarda bildirilgan siyosiy formula bo‘lib qolmadi. Keyingi yillarda Imom Buxoriy, Imom Termiziy va Imom Moturidiy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazlari, O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi hamda Islom sivilizatsiyasi markazini qamrab olgan ilmiy-ma’rifiy infratuzilma shakllantirildi. Tashqi siyosatda ilgari surilgan ma’rifat va bag‘rikenglik konsepsiyasi mamlakatda ilmiy markazlar, ta’lim muassasalari va merosni tadqiq etish mexanizmlari orqali moddiy shakl kasb etmoqda.

Bu jarayonning real natijalari ham tobora ko‘rinmoqda. 2026-yil 17-martda rasman faoliyat boshlagan Islom sivilizatsiyasi markaziga 1-iyun holatiga ko‘ra, yarim millionga yaqin mahalliy va xorijlik mehmon borgan, 150 dan ortiq chet el delegatsiyasi qabul qilingan. Markaz ma’lumotlariga ko‘ra, ilmiy va innovatsion yo‘nalishda 810 ta loyiha amalga oshirilib, ularga qariyb 2000 mahalliy va xorijlik olim jalb etilgan. Madaniy merosni qaytarish bo‘yicha qilingan ishlar natijasida esa mingdan ziyod tarixiy artefakt O‘zbekistonga qaytarilgan.

Bu raqamlar diniy-ma’rifiy siyosat samaradorligini faqat konferensiyalar yoki bayonotlar soni bilan emas, balki ilmiy mahsulot, xalqaro akademik hamkorlik, madaniy merosning tiklanishi va jamoatchilikning undan foydalanish imkoniyati bilan baholash zarurligini ko‘rsatadi.

Diniy merosning xalqaro imij va gumanitar diplomatiya vositasiga aylanishi muayyan darajada mas’uliyat ham talab qiladi. Tarixiy shaxslar va diniy merosni bugungi siyosiy ehtiyojlarga moslashtirish bilan ularni xolis ilmiy tadqiq etish o‘rtasidagi chegara saqlanishi muhim. Ma’rifatparvarlikning barqaror modeli tarixni ideallashtirishdan ko‘ra, manbashunoslik, akademik bahs, qiyosiy tadqiqot va zamonaviy dinshunoslik metodlariga tayanganida kuchliroq bo‘ladi.

Shu nuqtayi nazardan, O‘zbekiston ilgari surayotgan diniy-ma’rifiy yondashuvni “yumshoq kuch”ning ma’rifatga asoslangan shakli sifatida ham ko‘rish mumkin. Markaziy Osiyoning hadis, kalom, fiqh, falsafa, tibbiyot, astronomiya va matematika tarixidagi boy merosini zamonaviy xalqaro auditoriyaga ilmiy asosda taqdim etish mamlakatimizning sivilizatsion imijini mustahkamlash bilan birga diniy o‘zlikni bilim, bag‘rikenglik va ilmiy tafakkur bilan bog‘lash imkonini bermoqda. Natijada ma’rifat va bag‘rikenglik tashqi siyosiy shior emas, balki ilmiy institutlar, ta’lim, madaniy meros va xalqaro akademik almashinuv orqali ishlaydigan gumanitar diplomatiya mexanizmiga aylanmoqda.

Aynan shu jihat umumiy manzarani to‘ldiradi. O‘zbekistonning ochiqligi endi faqat diplomatik yoki iqtisodiy tushuncha emas. U xalqaro siyosat, savdo va investitsiya bilan bir qatorda ilm-fan, texnologiya, demografiya hamda madaniy-ma’rifiy muloqotni ham qamrab olayotgan ko‘p qatlamli jarayonga aylanmoqda. Zamonaviy taraqqiyotda inson qadri faqat siyosiy shior emas. U iqtisodiy imkoniyat, huquqiy himoya, sifatli ta’lim, xavfsiz atrof-muhit va ertangi kunga ishonch bilan mazmun kasb etadi. Ana shu mezonlar xalqaro ochiqlikni barqaror taraqqiyotga aylantiradigan asosiy omillardir.

O‘zbekistonning global maydondagi bugungi qiyofasi asrlar davomida shakllangan sivilizatsion merosni zamonaviy davlatchilik mantig‘i bilan uyg‘unlashtirish, mintaqa va jahonning umumiy taqdiriga daxldorlikni tanlash jasorati.

Inson qadri tushunchasi jamiyatning huquqiy, iqtisodiy va ma’naviy qon tomirlariga singib borar ekan, u tom ma’noda davlatning yangi asrdagi yashash tamoyiliga aylanmoqda. Dunyo global ziddiyatlar va noaniqliklar girdobida tobora chuqur botib borayotgan bir sharoitda ochiqlik, muloqot va ma’rifatga tayangan ushbu yo‘l nafaqat milliy yuksalishning, balki Markaziy Osiyoni global arxitekturaning barqaror va intellektual ustuniga aylantirishning hayotiy yechimi sifatida ko‘rilmoqda.

SUV TEJASHDA KEGEYLI TAJRIBASI OMMALASHADI

Orolbo‘yi hududida qishloq xo‘jaligini rivojlantirish, avvalo, suvdan qanchalik samarali foydalanishga bog‘liq. Qoraqalpog‘istonning Kegeyli tumanida tashkil etilgan sanoatlashgan intensiv bog‘ bu borada e’tiborga molik tajriba bo‘ldi.

Prezidentimiz Qoraqalpog‘istonga tashrifi davomida “ADM Agro” korxonasining mazkur intensiv bog‘iga borib, zamonaviy agrotexnologiyalar bilan tanishgan edi. Loyihaning umumiy maydoni 330 gektar. Hozir uning 69 gektarida 250 ming tup qora olxo‘ri parvarishlanmoqda. Loyihaning muhim jihati yopiq drenaj va tomchilatib sug‘orish tizimi birgalikda qo‘llanilayotganida. Mutaxassislar fikricha, an’anaviy usulda sug‘orish uchun bir gektar maydonga 12 ming litr suv kerak. Tomchilatib sug‘orish tizimi orqali bu ko‘rsatkich 5 ming litrgacha kamaygan. Natijada suv 60 foizgacha tejalmoqda.

Tahlillarga ko‘ra, bunday texnologiyalar suv sarfini 45-50 foizgacha, yoqilg‘i-moylash materiallari va mineral o‘g‘it xarajatlarini 25-35 foizgacha kamaytiradi. Hosildorlik esa 15-20 foizgacha oshadi. Tejamkor texnologiyalar suvni kerakli vaqtda va zarur miqdorda ekinning ildiziga yetkazib beradi. Suv bilan birga mineral o‘g‘itni ham aniq me’yorda berish imkoni bo‘ladi. Berilgan o‘g‘itni o‘simlik 90 foizgacha o‘zlashtiradi.

Orolbo‘yi sharoitida suv tejash barobarida yerning meliorativ holatini barqaror saqlash, sizot suv sathini nazorat qilish va tuproqda tuz to‘planishining oldini olish ham muhim. Shu ma’noda, bog‘da yopiq drenaj tizimining tomchilatib sug‘orish bilan uyg‘unlashtirilgani alohida ahamiyatga ega. Bunday yondashuv o‘simlik ildiz qatlamida maqbul suv-tuz rejimini ta’minlashga xizmat qiladi.

Bugungi kunda Qoraqalpog‘istondagi 417 ming gektar ekin yerini sug‘orishga 5 milliard 700 million kub metr suv sarflanmoqda. Yo‘qotishlar esa 38 foizni — 2 milliard 100 million kub metrni tashkil etmoqda. To‘rtko‘ldagi Yonbosh kanalidan yiliga o‘tadigan 115 million kub metr suvning 44 millioni yo‘qotiladi. Kanal to‘liq betonlansa, yana 9 ming gektarga suv yetkazish va 15 ming bosh qoramol uchun ozuqa bazasini yaratish mumkin. Bo‘zatovdagi Erkindaryo kanalining 8 kilometrini betonlash hisobiga foydalaniladigan yer 3 ming gektarga ko‘payadi, 15 ming gektarda suv ta’minoti yaxshilanadi.

3 ta suv inshooti va 22 ta artezian quduq barpo etilishi yana 5 ming gektar ozuqa maydonini yaratish imkonini beradi.

Nukus shahrida Prezidentimiz raisligida Qoraqalpog‘istonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish masalalariga bag‘ishlab o‘tkazilgan yig‘ilishda ushbu ishlarga jami 135 milliard so‘m ajratish, ikki kanalni 1-martgacha betonlash topshirildi. To‘rtko‘l va Bo‘zatovda kelasi yil 17 ming gektarda ozuqa ekib, 2 ming odamni daromadli qilish vazifasi belgilandi.

Suv tejovchi texnologiyalarni joriy etishdan asosiy maqsad faqat suv sarfini kamaytirish emas. Tejalgan har bir kub metr suv boshqa ekin maydonlarini barqaror suv bilan ta’minlash, suv tanqisligi ta’sirini yumshatish va mavjud resurslardan ko‘proq iqtisodiy samara olish imkonini beradi.

Endi Kegeylidagi tajribani Qoraqalpog‘istonning boshqa hududlariga keng tatbiq etish reja qilingan. Intensiv bog‘lar maydonini 10 ming gektarga yetkazish ko‘zda tutilmoqda. Orolbo‘yining murakkab tabiiy sharoiti suvga munosabatni ham o‘zgartirishni talab qiladi. Bu yerda suvni ko‘p berish emas, uni aniq hisob, zamonaviy texnologiya va samarali boshqaruv asosida o‘simlikka yetkazish hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Kegeylidagi intensiv bog‘ ana shu tamoyilning amaldagi ko‘rinishidir.



Keyingi yillarda Orolbo‘yidagi vaziyat o‘zgardi. Suv tejovchi texnologiyalar asosida mahsulot yetishtirgan tadbirkorlarga subsidiya berish tizimi yo‘lga qo‘yildi. Imtiyozli kreditlar, soliqdagi yengilliklar, elektr quvvati xarajatining bir qismini qoplash va servis xizmatini kafolatlash kabi qo‘shimcha mexanizmlar joriy etildi. Natijada fermer uchun yangi texnologiyaga o‘tish tavakkalchilik emas, aniq hisob-kitobga asoslangan iqtisodiy qarorga aylana boshladi.

Amaldagi tartibga ko‘ra, paxta maydonlarida tomchilatib sug‘orish texnologiyasini joriy etgan xo‘jaliklarga har bir gektar uchun 8 million so‘mdan 16 million so‘mgacha subsidiya ajratiladi. Qoraqalpog‘iston Respublikasi va Xorazm viloyatida esa bu miqdor 12 million so‘mdan 20 million so‘mgacha yetadi. Yomg‘irlatib sug‘orishni joriy etganlar uchun esa gektariga 8 million so‘mdan 16 million so‘mgacha, diskret sug‘orish uchun esa 4 million so‘mdan 6 million so‘mgacha subsidiya berish belgilangan.

Suv tejovchi texnologiyalar o‘rnatilgan yer uchastkalari besh yilga yer solig‘idan ozod etiladi. Shuningdek, suvni tejaydigan sug‘orish texnologiyalari joriy qilinganda, suv hisoblagich o‘rnatilganda obihayotdan foydalanganlik uchun soliq bo‘yicha 50 foizli imtiyoz qo‘llaniladi. Maxsus platforma orqali besh yil muddatga, shundan ikki yillik imtiyozli davr bilan yillik 14 foiz stavkada kredit olish imkoni yaratildi.

Albatta, ushbu yengilliklar fermerlarning dastlabki xarajatini kamaytiradi. Bu esa ularning tomchilatib yoki yomg‘irlatib sug‘orish tizimini joriy etishiga katta rag‘bat beradi.

Minajatdin QUTLIMURATOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Nigoh

“TEZROQ HARAKAT QILING, O‘ZBEKISTON BOZORIGA KIRISHGA SHOSHILING” yoxud sobiq elchining fikri o‘zgarishiga nima sabab bo‘ldi?



Otabek HASANOV,
Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi rahbari

Boshlanishi 1-betda

Delegatsiyamiz ushbu mamlakatda bo‘lib turgan kezlarda O‘zbekiston — Yaponiya hamkorligining yana bir yorqin samarasi bo‘y ko‘rsatdi: Mustaqillik to‘yi arafasida Prezidentimizning farmoniga ko‘ra “Sojitz” kompaniyasi direktori Masayoshi Fujimoto mamlakatimiz iqtisodiyotiga xorijiy investor sifatida qo‘shgan hissasi, amalga oshirgan yirik loyihalari uchun “Do‘stlik” ordeni bilan taqdirlandi. Bu ikki davlat o‘rtasidagi hamkorlikning nafaqat ma’naviy-ma’rifiy, balki iqtisodiy jihatdan ham qanchalik mustahkam ekanining yaqqol dalilidir.

Janob Kato nima deydi?

Bir paytlar Yaponiyaning mamlakatimizdagi favqulodda va muxtor elchisi bo‘lgan Fumixiko Kato bilan muloqotimiz uzoq davom etdi. Chunki gaplashadigan, muhokama qiladigan mavzularimiz ko‘p ekan. Ayni paytda Yaponiya — O‘zbekiston jamiyati raisi sifatida faoliyat yuritayotgan janob Kato Vatanimizga e’tibori bo‘lakcha ekanini yashirib o‘tirmadi:

— Hozir O‘zbekiston qiziqish bildirayotgan asosiy yo‘nalishlardan biri — ta’lim. Avval xorijdan keladigan sarmoya taxminan 2-3 milliard AQSH dollarini tashkil etgan bo‘lsa, hozir u 40-50 milliard dollar darajasiga yetdi. Bu juda muhim ko‘rsatkich. Ta’limni ham qamrab olgan ko‘plab sohalarga chet el sarmoyasi jalb qilinmoqda. O‘qitish sohasida besh yil avval Japan Digital University tashkil etildi. Universitetda AT va yapon tili o‘qitiladi. Hozir unda ko‘plab o‘zbekistonlik yoshlar tahsil olmoqda. Dastlabki bitiruvchilarning bir qismi esa yapon kompaniyalariga ishga joylashdi. Bu tashabbus muvaffaqiyatli bo‘lgani uchun endi Sukuba universiteti, Okayamadagi Kibi xalqaro universiteti va Okayama tijorat universiteti kabi qator oliygohlar O‘zbekistonda universitet tashkil etish yoki ta’lim bo‘yicha hamkorlikni kengaytirishni rejalashtirmoqda.

Sobiq elchi navbatdagi yana bir e’tirofini chin dildan aytdi.

— 2013-2016-yillarda O‘zbekistonda favqulodda va muxtor elchi sifatida faoliyat yuritganim uchun mamlakatingizni juda yaxshi bilaman. O‘n yil avval o‘z yurtimga qaytganimdan keyin ko‘plab kompaniya rahbarlari va do‘stlarim “O‘zbekiston bozoriga kirish mumkinmi?” deb so‘raganda men ularga “Shoshmanglar, bir oz kutib turinglar”, deb aytganman. Bugun esa o‘sha palla keldi. Shavkat Mirziyoyev rahbarligidagi qariyb o‘n yillik islohotlar natijasini ko‘rib, bugun butunlay boshqa fikrni aytyapman: “Tezroq harakat qiling, O‘zbekiston bozoriga kirishga shoshiling”. Men bu da’vatimdan uyalib qolmasligimga ishonaman, — dedi Fumixiko Kato.

Ma’rifiy diplomatiya yutuqlari

Xalqaro hamkorlikning yana bir muhim qirrasi — xorijda yashayotgan vatandoshlarimiz bilan ma’naviy aloqani mustahkamlash. Mustaqilligimizning 35-yillik to‘yini yurtimizdan minglab kilometr uzoqda yashayotgan yurtdoshlarimizga ham his qildirish, ularga Vatan nafasini yetkazish maqsadida Nagoyada “Mustaqillik kubogi” futbol musobaqasi tashkil etildi. Unda sakkizta jamoa kuch sinashdi. Bu oddiy sport tadbiri emas: u bir-biriga notanish, turli shaharlarda yashayotgan yurtdoshlarimizni bir maydonda, bitta bayroq ostida birlashtirdi.

So‘ng vatandoshlarimiz bir piyola choy ustida, dasturxon atrofida jam bo‘lib, milliy an’analarimizni asrab-avaylash, chet elda ham o‘zlikni yo‘qotmaslik namunasini ko‘rsatdi. Vatandoshlarimizga o‘zbek tilida chop etilgan kitoblar tortiq qilinganida, ular ko‘proq adabiyotlarga ehtiyoji borligini bildirdi. Bu esa xorijda yashayotgan yurtdoshlarimizning ona yurt bilan bog‘liq asarlarga naqadar chanqoq ekanini yaqqol ko‘rsatib turibdi.

Xirosima shahrida tashkil etilgan madaniyat kechasi safarning yana bir yorqin sahifasi bo‘ldi. Unda taniqli san’atkorlarning konsert dasturi vatandoshlarimiz va yapon tomoshabinlari tomonidan iliq kutib olindi. Bu O‘zbekiston madaniyatini keng jamoatchilikka tanitishning yana bir samarali yo‘lidir.

— Bugungi bayram chindan ham ko‘ngillarga quvonch baxsh etdi. Unutilmas lahzalarga boy o‘tgani bilan yodimizda qoldi, — deydi tadqiqotchi Nodira Turg‘unova. — Mustaqillik to‘yi nafasini tuyishga imkoniyat yaratib berayotgan mamlakatimiz rahbariga, shuningdek, bizni yo‘qlab kelgan tashkilotchilarga chin qalbdan minnatdorlik bildiramiz. Bugun biz nafaqat ma’naviy hordiq chiqardik, balki yillar davomida yuragimiz tubida to‘planib qolgan yurt sog‘inchiga



ham malham topdik. Ayniqsa, “Tanovar” kuylanganida ko‘ngilda ta’rifi qiyin, boshqacha tuyg‘u uyg‘ondi — ko‘z oldimizdan bolalik, butun Vatan manzarasi o‘tgandek bo‘ldi. Axir biz aynan shunday ulug‘vor ohanglar ostida ulg‘aygan, shu qo‘shiqlar bilan voyaga yetgan avlodmiz. Ishonamizki, bunday uchrashuvlar davomli bo‘lib, xorijda yashayotgan har bir yurtdoshimizning qalbiga shu tariqa Vatan tafti kirib kelaveradi.



Shuningdek, Tokioning butun dunyoga mashhur Shibuya chorrahasida maxsus bayram aksiyasi tashkil etildi: yirik ekranlarda O‘zbekistondagi islohotlar haqidagi roliklar namoyish etildi. Har kuni millionlab odam kesib o‘tadigan bu maydonda mamlakatimizning bugungi qiyofasini ko‘rsatish, nazarimizda, ma’rifiy diplomatiyaning zamonaviy va ta’sirchan shakllaridan. Ma’rifiy diplomatiya faqat rasmiy davralarda emas, aynan shunday — xalq qalbida va ko‘chalarda ham yashaydi.

Kitob — do‘stlikning boshlanishi

Bugun yangi tushuncha paydo bo‘lgan: kitob diplomatiyasi. Biror davlatga borib, turli tashkilotlar vakillari bilan uchrashuvlarda kitob sovg‘a qilinyapti. Zero, kitob — do‘stlik belgisi.

Prezidentimiz tashabbusi bilan chop etilgan “Mustaqillik zafarnomasi” kitob-albomi mamlakatimizda turizm, iqtisodiyot, madaniyat va ta’lim kabi qator muhim sohalardagi islohotlarning ko‘lamini ko‘rsatib beradi.

Yaponiya parlamentida kitob-albom taqdimotini o‘tkazdik. Vaqt o‘tishi, vakillar almashishi mumkin, asar esa ishonchli manba sifatida saqlanib qoladi. Ishonamizki, bu asar ham O‘zbekiston va Yaponiya xalqlari o‘rtasidagi o‘zaro anglashuv va hamkorlikni yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.

Aynan shu nuqtayi nazardan, Yaponiya parlamentidagi ushbu taqdimot, davra suhbatlari va institutsional uchrashuvlar “ma’rifiy diplomatiya” tushunchasining amaliy namunasiga aylandi. Bunda kitob, ta’lim va madaniy meros davlatlar o‘rtasidagi ishonchni mustahkamlovchi vosita sifatida maydonga chiqdi.

Tadbirda Yaponiya Vakillar palatasi a’zolari — Tomomi Inada, Yasutaka Nakasone va Karen Makishima, Yaponiya — O‘zbekiston jamiyati raisi Fumixiko Kato hamda ta’lim, madaniyat va biznes doiralar vakillari qatnashdi. Unda mamlakatimizda so‘nggi 10-yilda Prezidentimiz tomonidan iqtisodiyot, ta’lim, mahalla va turizm sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar va ulkan bunyodkorlik ishlari haqida videorolik hamda kitoblar orqali hikoya qilindi.

— Har qanday millat uchun o‘z tarixini, o‘z so‘zini asrab qolish kelajakka qoldiriladigan eng qimmatli merosdir, — deydi Yaponiya Milliy parlamenti kutubxonasi bosh direktori o‘rinbosari Kito Junko. — Biz qariyb 50 millionga yaqin materialni raqamli shaklga o‘tkazish, ularni asrab-avaylash va erkin, so‘z-matnli qidiruv olib borish imkonini yaratish ustida yillar davomida ishlab kelamiz. Biroq bilimning haqiqiy qiymati u faqat bir mamlakat devorlari ichida qolib ketmay, chegaralar oshib, boshqa xalqlarga ham yetib borganda namoyon bo‘ladi. Shu bois, biz raqamli kontentni xorijdagi kutubxonalarga ham ulashish tizimini yo‘lga qo‘yganmiz. O‘zbekiston delegatsiyasi bizga taqdim etgan “Mustaqillik zafarnomasi”, “Temurbek”, “Buyuklar haqida 100 ta dalil” kitoblari kutubxonamizdan munosib o‘rin oladi. Bunday kitoblar shunchaki qog‘oz va harflar emas, balki xalqning qalbi, tafakkuri va orzu-umidlari jamlanmasidir. Yapon kitobxoni qo‘liga o‘zbek adibining asarini olganida u orqali butun bir madaniyatni, butun bir xalqning ruhini his qila oladi. Men ishonamanki, bilim va kitob orqali o‘rnatilgan bunday ko‘priklar uzoqroq umr ko‘radi, chunki ular inson qalbiga bevosita yo‘l topadi.

> **“O‘n yil avval o‘z yurtimga qaytganimdan keyin ko‘plab kompaniya rahbarlari va do‘stlarim “O‘zbekiston bozoriga kirish mumkinmi?” deb so‘raganda men ularga “Shoshmanglar, bir oz kutib turinglar”, deb aytganman. Bugun esa o‘sha palla keldi. Shavkat Mirziyoyev rahbarligidagi qariyb o‘n yillik islohotlar natijasini ko‘rib, bugun butunlay boshqa fikrni aytyapman: “Tezroq harakat qiling, O‘zbekiston bozoriga kirishga shoshiling”. Men bu da’vatimdan uyalib qolmasligimga ishonaman, — dedi Fumixiko Kato.**

Bilim — birlashtiruvchi kuch

Yaponiyaga safar nafaqat rasmiy uchrashuvlar, balki ikki xalq o‘rtasidagi ma’naviy yaqinlashuvning yangi bosqichi bo‘ldi. Biz kunchiqar mamlakatga alohida maqsad — ta’lim-tarbiya tizimi, xususan, ularning “tokkatsu” deb ataladigan maktab madaniyati va ma’naviy-axloqiy tarbiya tajribasini, shuningdek, milliy yozma merosni raqamlashtirish borasidagi yutuqlarini yaqindan o‘rganish uchun ham bordik.

Yaponiyaning ta’lim tizimi va madaniyatidagi diqqatga sazovor jihati shundaki, u yoshlarda bir vaqtning o‘zida mustaqil fikrlash, jamoaviy mas’uliyat, milliy o‘zlikni tarbiyalaydi. Bu yerda hech narsa tasodifiy emas, hatto maktab sayohatlariga ham o‘quv dasturining ajralmas qismi sifatida qaraladi.

Kayetsu Ariake litseyi xalqaro ta’lim bo‘limi direktori, chet el universitetlari bo‘yicha maslahatchi Hideo Yamadaning aytishicha, yapon maktablarida odatda tarbiya va intizomga juda jiddiy e’tibor beriladi. Masalan, darslar tugagach, o‘quvchilar, albatta, maktabni tozalaydi. Bu ishlar navbatchilik asosida bajariladi va bunday amaliyot butun Yaponiya bo‘ylab qo‘llanadi. Ularning tartibli saf tortishga odatlangani ham maktab tarbiyasining muhim xususiyatlaridan.

Maktablarning alohida jihati shundaki, unda bolalar bilan suhbat va muloqot juda qadrlanadi. Shuningdek, boshqalarga hurmat bilan munosabatda bo‘lish doim yodda tutiladigan tamoyil sifatida o‘quv dasturiga kiritilgan.

Yaponiyada diqqatga molik har bir tajriba — Milliy parlament kutubxonasidagi 48,6 milliondan ortiq materialni raqamlashtirish tizimidan tortib, o‘quvchilarni mustaqillikka o‘rgatuvchi maktab madaniyatigacha — bitta umumiy g‘oyaga xizmat qiladi: bilim insonni ham, xalqni ham birlashtiradi.

“O‘zbekistonlik talabalarning intilishi yuqori ekaniga guvoh bo‘ldim”

Safar davomida bo‘lib o‘tgan uchrashuvlardan biri — Nagoya iqtisodiyot universiteti rahbariyati bilan muloqot biz uchun alohida ahamiyatli bo‘ldi. Uchrashuvda mazkur universitet aynan O‘zbekistonning sakkizta oliy o‘quv yurti bilan hamkorlik o‘rnatgani, bu esa yapon ta’lim tizimi uchun kamdan-kam uchraydigan hodisa ekani qayd etildi. Qo‘shma diplom dasturlari doirasida bu yerda hozir 27 o‘zbek talaba tahsil olmoqda. Universitetning “Avvalo, shaxs, so‘ng mahorat” tamoyili bizni alohida qiziqtirdi. Shu sababli qo‘shma ma’naviy-axloqiy ta’lim dasturini yo‘lga qo‘yish hamda bu borada memorandum imzolash taklifi ilgari surildi.

Mazkur ta’lim muassasasi prezidenti Haruo Saburi mamlakatlarimiz o‘rtasidagi hamkorlik haqida bunday deydi:

— 2019-yilda janob Prezident Shavkat Mirziyoyev Nagoya universitetiga tashrif buyurib, faxriy doktorlik unvonini olgan kuni men u bilan bevosita muloqot qilish sharafiga muyassar bo‘lgan edim. O‘shanda u mamlakat kelajagini ta’limga alohida e’tibor qaratish orqali qurish qat’iy azmu qarori ekanini bildirdi hamda Nagoya universitetida tahsil olayotgan o‘zbekistonlik talabalarga har tomonlama ko‘maklashish va’dasini berdi. Bu meni juda to‘lqinlantirib, O‘zbekiston bilan hamkorlikni yanada chuqurlashtirish istagini uyg‘otdi. Ayniqsa, o‘z nutqini aynan ta’lim masalasidan boshlagan va ma’ruza davomida “ta’lim” so‘zini to‘qqiz marta takrorlagan edi — men nutqni diqqat bilan tinglab, bu so‘zni sanab bordim va hayratda qoldim. Yillar davomida o‘zbekistonlik talabalarning intilishi yuqori ekaniga guvoh bo‘ldim. Shu bois, bugun Nagoya iqtisodiyot universiteti O‘zbekistonning sakkizta oliy ta’lim muassasasi bilan qo‘shma diplom dasturlarini amalga oshirmoqda. Ishonchim komilki, bu hamkorlik ikki mamlakat o‘rtasidagi iqtisodiy va ta’limiy aloqalarni yangi bosqichga olib chiqadi.

Istiqbolli rejalar orqali yorug‘ manzillar sari

Kelishuvlar va o‘tkazilgan tadbirlar yakunida ilg‘or xorijiy tajribani tatbiq etish bo‘yicha alohida chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqildi. Unda Nagoya iqtisodiyot universiteti bilan qo‘shma ta’lim dasturi, Yaponiyaning “tokkatsu” tajribasini tanlangan maktablarda pilot tajriba tariqasida tatbiq etish, parlament kutubxonasi modelini milliy yozma merosni raqamlashtirishda qo‘llash, shuningdek, Yaponiyadagi vatandosh yoshlar bilan aloqani yanada rivojlantirish kabi yo‘nalishlar qamrab olingan.

Yaponiyadagi O‘zbekiston turizmi va madaniyati assotsiatsiyasi asoschisi Akane Masaoka ushbu sohada yigirma yildan buyon faoliyat yuritadi. Shu davrda kunchiqar yurt vakillarining mamlakatimizga qiziqishi qanday o‘sib borganini o‘rganib keladi.

— O‘tgan yili Yaponiyadan O‘zbekistonga 32 ming sayyoh bordi. Bu yil esa ushbu ko‘rsatkich ikki baravar oshishi kutilmoqda va bu tasodif emas, — deydi Akane Masaoka. — Yaponiyalik sayyohlar uchun Samarqand, Buxoro, Xiva va boshqa hududlarning me’morchilik obidalari haqiqiy kashfiyotdir. Ularning nafisligi, ranglar uyg‘unligi va uzoq tarixga ega ekani bizning mamlakatdagi qadimiy obidalar ruhini eslatadi. Shu bilan birga, butunlay o‘zgacha, sharqona nafosat bilan yo‘g‘rilgan. Milliy taomlaringiz ham alohida o‘rin tutadi. Yaponiyaga qaytgan sayyohlarimiz ularning ta’mi haqidagi esdaliklarini uzoq vaqt gapirib yuradi. Eng muhimi, yurtingizda sayyohlar uchun xavfsiz muhit yaratilgan. Biz endi nafaqat individual sayyohlar, balki maxsus guruh turlarini, jumladan, gastronomik va me’moriy marshrutlarni ham tashkil qila boshladik. Ishonamanki, xavfsizlik, mehmondo‘stlik va boy tarixiy-madaniy meros — uchovi qo‘shilib, O‘zbekiston Yaponiya uchun Markaziy Osiyodagi eng sevimli yo‘nalishlar bo‘lib qolishini ta’minlaydi.

* * *

Davlatimiz rahbari ta’biri bilan aytganda, “ta’lim, ta’lim va yana bir bor ta’lim” tamoyili ushbu safarning asosiy mazmunini tashkil etdi. Har bir yapon mutaxassisi — universitet rahbaridan tortib, maktab o‘qituvchisigacha — bir ovozdan yagona fikrni takrorladi: “O‘zbekistonda kechayotgan islohotlar, talabalarning bilimga chanqoqligi va yoshlarning intiluvchanligi yorug‘ istiqboldan darak bermoqda”.

KECHAGI ORZULAR BUGUN HAQIQATGA AYLANMOQDA

Dil izhori

Har bir insonning hayotida bosib o‘tgan yo‘li, mehnati va kecha-kunduz qilgan izlanishlariga xulosa yasaladigan, ayni paytda kelajak mas’uliyati yelkasiga tushadigan unutilmas damlar bo‘ladi. Davlatimiz rahbari tomonidan kamtarona ilmiy izlanishlarim e’tirof etilib, “Kelajak bunyodkori” medali bilan mukofotlanganim haqidagi xabarni eshitgach, ancha vaqt hayajonimni bosolmadim. Bu shunchaki shaxsiy yutuq yoki bir nishon emas, balki yangi O‘zbekistonda Uchinchi Renessans poydevorini qo‘yishda ilm ahliga, xususan, yosh tadqiqotchilarga ko‘rsatilayotgan yuksak ishonch va e’tiborning amaliy ifodasidir.



Jumaniyoz SANGIROV,
O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Tarix institutining Yosh olimlar kengashi raisi o‘rinbosari

Bugun mamlakatimizda ilm-fan va ta’lim shunchaki soha emas, balki davlat siyosatining eng ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Ayniqsa, davlatimiz rahbarining milliy tariximizni, o‘zbek davlatchiligi ildizlarini chuqur o‘rganish va uni dunyoga targ‘ib qilishga qaratilgan alohida e’tiborini biz — yosh tarixchilar har kuni faoliyatimizda his qilib yashayapmiz.

Oxirgi yillarda ilm-fan sohasidagi islohotlar, ilmiy xodimlar ish haqining 3 baravar oshirilgani, olimlar uchun yaratilgan 30 foizdan 60 foizgacha bo‘lgan ustamalar, bir vaqtning o‘zida universitetlarda dars berish hamda yirik fundamental va innovatsion loyihalarda ishtirok etish imkoniyati hayotimizni tubdan o‘zgartirdi.

> **2018-yili Navoiy nomidagi davlat stipendiyasi, 2024-yili O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining davlat stipendiyasiga munosib ko‘rildim. 28 yoshimda tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori bo‘ldim. Hozir Tarix institutining manbashunoslik va hujjatshunoslik markazini boshqaryapman.**

Ilgari hatto tushimizga ham kirmagan moliyaviy imkoniyatlar, yuqori daromadga ega bo‘lish, oila tebratib, hech narsadan kamchilik ko‘rmay, faqat va faqat sof ilm bilan shug‘ullanishimiz uchun barcha sharoit yaratildi. Oddiy oila farzandi bo‘lmish mening so‘nggi o‘n yildagi umr yo‘lim ta’lim va ilm-fandagi tarixiy o‘zgarishlar hamda yaratilgan sharoitlarda kechdi. Bakalavriat, magistratura, doktoranturada tahsil oldim. 2018-yili Navoiy nomidagi davlat stipendiyasi, 2024-yili O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining davlat stipendiyasiga munosib ko‘rildim. 28 yoshimda tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori bo‘ldim. Hozir Tarix institutining manbashunoslik va hujjatshunoslik markazini boshqaryapman.

Bugun yosh olim, ayniqsa, yosh tarixchi sifatida iqtidorimni ko‘rsatish uchun barcha sharoit bor. Prezidentimiz topshirig‘i bilan arxivlar, jamg‘armalar, qadimiy va boy tariximizni o‘rganishga bag‘ishlangan fundamental va innovatsion loyihalarda ishtirok etish uchun barcha eshiklar ochildi. Chet elning ta’limiy va ilmiy markazlariga borish, yurtimizda xalqaro tadbirlar uyushtirish, kitoblarimizni nashr ettirish borasida kecha orzu bo‘lgan sharoitlar yaratib berildi. Hozir bo‘lajak olima ayolim bilan shaharda o‘zimning uyimda yashayman, institutga o‘z avtomobilimda qatnayman. Faqat va faqat ilm bilan shug‘ullanmoqdaman.

Olim uchun eng ulug‘ baxt ham aslida shu!



“OSMONI FALAKLARDA” – “KASB HAQIDAGI **ENG YAXSHI FILM”** DEB TOPILDI



МЕЖДУНАРОДНЫЙ КИНОФЕСТИВАЛЬ
АНТАРЕС

O‘zbek kinoijodkorlari tomonidan suratga olingan “Osmoni falaklarda” (В небесах) badiiy filmi 12–26-sentabr kunlari Moskva shahrida bo‘lib o‘tgan “Antares” III xalqaro kinofestivalining to‘liq metrajli badiiy filmlar tanlovida birinchi o‘rinni qo‘lga kiritdi.



Ushbu konkursga talabchan hakamlar hay’ati va tomoshabinlar e’tiboriga 44 davlatdan 172 ta kinokartina taqdim etildi, umumiy hisobda esa 79 mamlakatdan 3700 dan ziyod film kelib tushdi.

Festivalning bosh mavzusi mehnat ahli bo‘lib, u turfa kasb egalari — aktrisa, shifokor, uchuvchidan tortib, farrosh, kulol, sartarosh, kaskadyor ayol, futbol darvozabonigacha bo‘lgan xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi Jahongir Qosimov tomonidan suratga olingan.

Syujet asosini uch hikoyadan iborat “Osmoni falaklarda” turkumiga kiruvchi hikoya tashkil etib, uning kinotalqini “Osmon qiroli” deb ataladi. Film markazida sobiq ittifoq parchalanib ketgan davrda uchuvchilik bilim yurtini tugatib, ishsiz qolgan, so‘ngra Toshkentga



obrazlar galereyasi orqali ochib berildi.

“Osmoni falaklarda” filmi namoyishi esa festivalning yakuniy qismidan joy oldi va zamonamiz qahramonlari obrazlarini gavdalantirishning eng yuksak namunasi sifatida e’tirof etildi.

Ushbu kartina O‘zbekiston Respublikasi Kinematografiya agentligi, Kasaba uyushmalari federatsiyasi hamda “Sevimli” telekanali ko‘magida, O‘zbekiston xalq yozuvchisi Xayriddin Sultonov ssenariysi asosida taniqli kinorejissyor, O‘zbekistonda qaytib, bu yerda “Graf” laqabli afsonaviy uchuvchi Rashod Shamshetovni uchratgan yosh uchuvchi Badalov taqdiri turadi. Bosh qahramon obrazi hayotdan olingan bo‘lib, syujet negizida turli avlodlar qalbidan chuqur joy olgan haqqoniy voqealar mujassamdir.

Rejissyor Jahongir Qosimov festivalda kartinani taqdim etar ekan, bu film uchuvchilik kasbi haqida shunchaki hikoya emas, balki, avvalo, or-nomus, qadr-qimmat, erkinlik haqida ekanini, inson o‘zining hayotiy prinsiplariga sodiq qolishi uchun ba’zan qanday og‘ir sinovlardan o‘tishga to‘g‘ri kelishi xususidagi ulkan insoniy drama ekanini ta’kidladi. Xayriddin Sultonovning asarlari, xususan, mazkur film ssenariysi nihoyatda o‘ziga xos va betakrorligi, inson xarakteri teran ochib berilgani bilan ajralib turadi. Filmdagi dialoglar tabiiy va siyqa qoliplardan yiroq — ularda jonli hayot nafasi, iztirob, umid va ishonch tuyg‘ulari yaqqol sezilib turadi.

Kinofestival direktori, rejissyor va prodyuser Andrey Afrin film haqidagi taassurotlari bilan o‘rtoqlashib, jumladan, bunday dedi: “Bilasizmi, bu kinoasarda meni nima o‘ziga maftun etdi? Bu yerda osmon shunchaki majoz emas. Bu inson o‘zi bilan o‘zi yolg‘iz qoladigan, hech qanday millat, lavozim yoki o‘tmishga suyanib bo‘lmaydigan makondir. Osmoni falaklarda faqat sening o‘zing va zimmangdagi mas’uliyat bor, xolos. Filmning bosh g‘oyasi qo‘rquvdan ham, hokimiyatdan ham ustun turuvchi kasbga, insoniy burchga sadoqat tuyg‘usidir. “Graf” qo‘liga kishan solingan sobiq boshlig‘ini ko‘rganda, garchi u jinoyatchi deb ayblanayotgan bo‘lsa-da, uni shu holda olib uchishdan bosh tortadi. “Mening samolyotimda uchuvchi zotining xor qilinishiga yo‘l qo‘ymayman”, deya baralla aytadi. Bu mavjud tartib-qoidalarni rad etish shunchaki isyon yoki o‘zini ko‘rsatib qo‘yish emas, balki karyerasi, hayotini garovga qo‘yib bo‘lsa-da, ko‘rsatilgan haqiqiy jasoratdir… Men bu filmni tomosha qilar ekanman, kasb mashaqqati va sharafini, mana, qanday qilib ekranga olib chiqish kerak deb o‘yladim”.

Film namoyishi muvaffaqiyat qozonib, tomoshabinlar va kinoijodkorlar hamjamiyatida katta qiziqish uyg‘otdi.

“Antares” xalqaro festivali Butunrossiya “Xavfsizlik va sifat” uyushmasi tashabbusi bilan tashkil etilgan keng ko‘lamli loyihadir. U har yili davlat, tijorat va sohaviy tuzilmalar konsorsiumi ko‘magida o‘tkazib kelinadi. Bu yil festival Gran-prisini rejissyor Lus Orlando Brennanning keksa aktrisa haqidagi “Men yo‘qotgan yulduz” (Argentina) filmi qo‘lga kiritdi. G‘oliblar qatoridan, shuningdek, Rossiya, Eron, Hindiston, Fransiya, Xitoy, AQSH, Ispaniya, Belarus va Italiya vakillari ham joy oldi.

Firyuza KUBARYEVA

YANGI O‘ZBEKISTON
www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz.uz_news



RENESSANS CHORRAHASI

Ajdodlar ruhiga ehtirom

Gohida odam xayolga toladi: ma’rifat o‘zi nima? U shunchaki kitoblarda chang bosib yotgan, sarg‘aygan sahifalarmi yoki qalblarni yorituvchi, millatni mudroqlikdan uyg‘otuvchi so‘nmas nur?

Toshkentning qoq markazida bo‘y cho‘zgan Islom sivilizatsiyasi markazi poyida turganingizda xayolingizdan aynan shu savol o‘tadi. Prezidentimizning yuksak ma’naviy nigohi va ezgu tashabbusi bilan qad rostlagan bu maskan shunchaki muhtasham me’moriy obida yoki Osiyo xaritasidagi navbatdagi yirik koshona emas. Yo‘q, bu — asrlar sukunatini buzib, ma’rifat va e’tiqod chorrahasida qayta tiklangan tirik moziy, kelajakka qo‘yilgan mustahkam ko‘prik.

Bu yerga qadam ranjida qilgan har bir inson — xoh u sochlariga oq oralagan ziyoli bo‘lsin, xoh olis qit’alardan kelgan sayyoh — eng avvalo, bir zalvorli hayrat qarshisida to‘xtab qoladi. Bu shunchaki marmar va pishiq g‘ishtlardan tiklangan imorat emas, balki ajdodlar ruhiga cheksiz ehtirom, millatning o‘z asli va o‘zligiga qaytgan onlarining me’moriy timsolidir.

Ma’naviy xazina

Biz “Renessans” so‘zini tez-tez tilga olamiz. Uyg‘onish davri shunchaki quruq so‘zlardan, minbarlardan yangraydigan balandparvoz nutqlardan iborat emas. U — Imom Buxoriyning tunlari chiroq yog‘dusida ko‘z nurini to‘kib, hadis saralash yo‘lida chekkan zahmati, Ahmad Farg‘oniyning yulduzlar sirini uqqan teran nigohi, Abu Ali ibn Sinoning butun bashariyat xastaliklariga davo izlagan aql-idrokidir.

Shu paytgacha ulug‘ allomalarimizning boy merosi dunyoning turli burchaklaridagi kutubxonalarda, begona qo‘llarda, bo‘lak-bo‘lak qo‘lyozmalar holida sochilib yotgan edi. Markazning eng katta ahamiyati shundaki, u mazkur tarqoq ma’naviy xazinani bag‘rida jamladi. Bu yerda tarix shunchaki tomosha qilinmaydi. U zamonaviy texnologiyalar va noyob ekspozitsiyalar orqali odamning yuragiga singdiriladi, tirik vujuddek his etiladi.

Jahon bizni qaytadan kashf etmoqda

Bugun markaz jahon sharqshunosligi va ilm-fanining muhim muhokama maydoniga aylanib ulgurdi. Xorijdan kelgan taniqli olimlar, Sharq tarixi bilimdonlari bu yerdagi noyob muhitni va to‘plangan xazinani ko‘rib, hayratini yashira olmayapti.

Fransiya milliy kutubxonasi va Luvr muzeyi mutaxassislari, jumladan, yetakchi tadqiqotchi Fransoa Derosh va taniqli san’atshunos Yannik Lins bu yerdagi keng ko‘lamli ishlarga yuqori baho berdi: “Mazkur markaz shunchaki muzey emas, balki islom madaniyatining insoniyat sivilizatsiyasiga qo‘shgan bebaho hissasini butun dunyoga qayta kashf etib berayotgan tirik ensiklopediyadir”.

Arab dunyosi instituti va Oksford Islom tadqiqotlari markazi direktori, professor Farhan Nizami hamda UNESCO ekspertlari esa qo‘lyozmalarni saqlash va raqamlashtirish borasidagi ishlarni ko‘rib, Toshkent yana bir bor Markaziy Osiyoning ma’rifiy va ilmiy markaziga aylanganini alohida e’tirof etmoqda. Bu e’tiroflar zamirida katta haqiqat bor — dunyo bizni qaytadan kashf etmoqda.

Odobi va ilmi bilan qalbni zabt etgan avlod

Markaz zallarini aylanar ekansiz, mahobatli peshtoqlar sizni o‘sha buyuk davrlarga yetaklaydi. Ammo bu yerda meni hayratga solgan, to‘g‘risi, ichimni yoritib yuborgan boshqa bir jonli manzara bo‘ldi. Bu — zamon bilan hamnafas, ko‘zi yonib turgan, kelgan mehmonlarga yo‘lboshchilik qilayotgan o‘zimizning qorako‘z yigit-qizlarimizdir.



Biz ana shunday umidli yoshlardan Samandar ismli yigit bilan suhbatlashib qoldik. Bir emas, beshta xorijiy tilni suv qilib ichib yuborgan bu yigitning bilimiga, ayniqsa, muomala madaniyati va odobiga havasingiz keladi. U peshtoqlardagi asrlar osha yashab kelayotgan sirli yozuvlarni, naqshlar qatiga yashiringan ma’nolarni shunday jonli tushuntirib berdiki, beixtiyor tarix tirilgandek bo‘ldi.

Eng ta’sirlisi, Samandar Qur’on oyatlarini yurakdan his qilib, o‘ta go‘zal va shirali ovozda tilovat qilib berdi. Bu shunchaki gidlik emas, balki o‘zligini anglagan avlodning qalb sadosi edi. Ularning samimiy tabassumida, har bir mehmonga ko‘rsatayotgan ehtiromida ajdodlardan o‘tgan azaliy o‘zbekona mehmondo‘stlik va zamonaviy ziyolilik mujassamdir.

Mojarolar girdobidagi najot qal’asi

Bugun atrofga, yer yuzining u yoki bu burchagiga nazar tashlang: jaholat, kimo‘zarlik ruhidagi urushlar, dinlararo va millatlararo lahzalik manfaatlar ortidan kelib chiqayotgan qonli mojarolar. Dunyo go‘yo parokandalik chohiga qarab ketayotgandek. Mana shunday tahlikali va tarang vaziyatda Toshkentda Islom sivilizatsiyasi markazining barpo etilishi shunchaki siyosiy yoki madaniy qadam emas. Bu — bashariyatga qarata aytilgan: “To‘xtang,



najot urushda emas, najot jaholatda emas, najot ilmda, odamiylikda!” degan umumbashariy da’vatdir.

Bir paytlar — tarixning xuddi shunday murakkab, nizolar avj olgan davrida buyuk bobomiz Burhoniddin Marg‘inoniy bebaho “Hidoya” asarini bitgan edi. Bu asar shunchaki huquqiy to‘plam emas, balki insoniyatni o‘zgalar qonini to‘kishdan asragan, jamiyatdagi turli mojarolar va zulmga chek qo‘ygan adolat mezoni, najotnoma bo‘lgan.

Vaqt esa shiddat bilan o‘tmoqda. Bugun zamon o‘zgardi, muammolar shaklini o‘zgartirdi. Endi bizga faqat kitob sahifalaridagi matn emas, balki o‘sha “Hidoya”ning tirik, amaliy ko‘rinishi — dunyoga ma’rifat tarqatuvchi yaxlit markaz kerak edi. Nazarimda, bugun Islom sivilizatsiyasi markazi aynan o‘sha “Hidoya” asarining zamon talablariga moslashgan, toshga va ilmga ko‘chgan ulug‘vor timsoliga aylana oldi. Bu maskanda jaholatga qarshi — ilm, parokandalikka qarshi esa birlik va bag‘rikenglik qurol qilib olingan. Bu, o‘z navbatida, millatimizning insoniyat tinchligi yo‘lida ko‘rsatayotgan eng oliyjanob xizmatidir.

Larzaga soluvchi zalvor

Majmuaning markaziy zalida saqlanayotgan Hazrati Usmon mus’hafi — muqaddas Qur’oni karimning noyob qo‘lyozmasi oldida to‘xtaganingizda tomiringizda oqib turgan qon bir lahza to‘xtab qolgandek bo‘ladi. Bu — asrlar hamda dunyoviy va diniy ilmlar tutashgan muqaddas nuqta. Odam bu sirli maskanda aylanar ekan, qalbida beixtiyor bir faxr, bir g‘urur to‘lqini ko‘tariladi: “Men shunday ulug‘ donishmandlar, dunyo sivilizatsiyasiga tamal toshini qo‘ygan allomalarning vorisiman!”.

O‘sha lahzada ko‘nglimdan bir gap o‘tdi: biz ulug‘ ajdodlarimiz bilan faqat maqtanib, o‘tmish soyasiga bekinib yuradigan millat emasmiz. Agar Samandarga o‘xshagan besh tilni biladigan, iymoni but, ilmi ziyoda, odobi go‘zal yigit-qizlarimiz bo‘y ko‘rsatayotgan ekan, demak, o‘sha muqaddas zanjir uzilib qolmagan. Buyuk bobolarimizning ma’naviy geni, ilmga tashnaligi bugungi avlodning qon-qonida yashamoqda. Demak, kelajakdan ko‘ngil to‘q.

Bu shunchaki o‘tmish bilan maqtanish emas. Bu, Prezidentimiz ta’kidlaganidek, zimmamizdagi ulkan ma’naviy mas’uliyatdir. Ushbu muhtasham koshona moziy sukutini buzib, kelajakka qarata baralla aytilgan nidodir: “Bizning ildizimiz chuqur, daraxtimiz esa hali uzoq vaqt gullayveradi!”.

Maqsud JONIXONOV,
jurnalist

“Yangi O‘zbekiston” va “Правда Востока” gazetalari tahririyati” DM

MUASSIS:
O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir:
Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga “SHARQ” NMAK mas’ul.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro‘yxatga olingan.
Nashr indeksi — 236. Buyurtma — G-946.
29213 nusxada bosildi.
Hajmi — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. **Qog‘oz bichimi** A2.
Bahosi kelishilgan narxda.

“SHARQ” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turon ko‘chasi, 41-uy.

Navbatchi muharrir: Munojat Mo‘minova
Musahhih: Akbar Qarshiyev
Dizayner: Xurshid Abdullayev

Manzilimiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz ko‘chasi, 85-uy

Qabulxona: (71) 233-56-33
E’lonlar bo‘limi: (71) 233-70-98

E-mail: info@yuz.uz
Веб-сайт: www.yuz.uz: (71) 233-47-05

Devonxona va ishonch telefoni:
(71) 233-56-60